جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2025-yil 12-dekabr
№ 50 (102)
www.jadid.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta


@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz



FAKT

- Ko‘ksaroy qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o‘tkazdilar.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 11-12-dekabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva “Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi va nutq so‘zladi.
- Hyundai Rotem O‘zbekistonga yuqori tezlikdagi poyezdlarining birinchi partiyasini jo‘natdi. “Jaloliddin Manguberdi” nomi berilgan yangi tezyurar poyezdlar kelgusi yil Toshkent–Urganch–Xiva yo‘nalishida harakat boshlaydi.

MUTOLAADAN SO‘NG



Koshg'ariy saltanati

TIL ILMINING NAYZADORI

Atoqli olim va mutafakkir Mahmud ibn Husayn Koshg‘ariyning haqiga, butun turkiy ellar, har qancha duo qilsak arziydi. Asli qoraxoniy hukmdorlar avlodidan bo‘lgan, mashhur Bug‘ra Qoraxon sulolasiga yettinchi bo‘g‘inda tutashadigan bu ulug‘ zot o‘tkinchi mulk hoy-u havasidan mardona kechib, boqiy so‘z saltanatini zabt etmakka qaror qildi va bu ketmas davlatning o‘lmas sohibiga aylandi – “farmon doiralari kengaysin!”

Koshg‘ariy shunga munosib, chunki “tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida nayzadorlaridan edi” u.

Bepoyon hududni poy-u piyoda kezib, o‘ttizdan ortiq turkiy lahjalarni – eng kichik farqlarigacha chuqur o‘rganib va nihoyat, ulug‘ yoshga yetganida o‘zining bebaho asariga – “Devonu lug‘atit turk”ga nuqta qo‘yib, sokin bir qoniqish ila tin olgan Koshg‘ariy boboning nurli siymosini tasavvur qilaman. Mana, yillar davomida inju kabi terilgan so‘zlar uning qalamravida, “kitob yangiliklar berishda qiyomiga, qiymat va muhimlikda esa poyoniga yetdi” – “arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poygada o‘zib borayotgan turk tili” yashar ekan, endi bu kitob ham mangu barhayotdir.

(Davomi 4-5-sahifalarda).

TAQDIMOT

SAYRDAN SO‘NG



Kuni kecha O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zamning “Momaqaldiroq ostida sayr” nomli yangi romani hamda adibning 75 yillik yubileyiga bag‘ishlangan “Erkin A’zam ijodi: tahlil va talqin” nomli kitob taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Tadbirni institut direktori, filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov olib bordi.

(Davomi 2-sahifada).

JARAYON

IZCHIL ISLOHOTLAR

kambag‘allikni tugatishga xizmat qiladi



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 9-dekabr kuni mahallalarni ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududlarga aylantirish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot bilan tanishuvi chog‘ida foydalanilmayotgan imkoniyatlar, bu boradagi sustkashliklarni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib berdi.

Bundan o‘n yil muqaddam, 2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) insoniyatning kelajagiga katta umid bag‘ishlagan, undagi 17 ta global maqsad, ayniqsa, birinchisi – 2030-yilgacha jahon miqyosida kambag‘allikka barham berish vazifasi dunyo hamjamiyati oldiga ulkan, ammo amalga oshirish mumkin bo‘lgan vazifani qo‘ygan edi.

(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI

Hamid OLIMJON

O‘LKA

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni, uyg‘ondim,
Odam baxti birgina senda
Bo‘luriga mukammal qondim.

Qulog‘imga noming kirganda
Qumliq kabi tashna boqurman,
Sening jannat vodiylaringda
Nahrlarday to‘lib oqurman.

Bilsinlarkim, yo‘ldoshim bo‘lmas
Ko‘zda yoshi bilan kulganlar,
Tillari bor, o‘zlari hayot,
Lekin yurak-bag‘ri o‘lganlar.

Har aytganing buyuk jangnoma,
Qayga desang, qaytmay keturman.
Ko‘zlarimni yummasman aslo –
Daryo kabi uyg‘oq o‘turman!



(3-sahifada o‘qing).

12-DEKABR – CHINGIZ AYTMATOV TAVALLUD TOPGAN KUN



ASRGA TATIGULIK UCHRASHUV

1990-yillarning boshi. Olis shimolda harbiy xizmatdaman. Bir kuni komandirimiz To‘raqul O‘rkachiyev Enasoy daryosi bo‘yida kimsan Chingiz Aytmatovni uchratganini aytib qoldi. Bu xushxabarni eshitganim zahoti meni ham tanishtirib qo‘yishni iltimos qila boshladim. To‘raqul og‘a biroz og‘rindi: “Qani, inim, bilib kelay-chi. Katta yozuvchining vaqti, imkoni, xohishi bo‘larmikan...” To‘g‘risi, dovrug‘i yetti iqlimga yetgan adib va arbobning oddiy askar bilan gurunglashishiga o‘zim ham ishonmasdim. U kishi prezidentlar, qirollar, kosmonavtlar, xullas, Yer yuzining kazo-kazolari bilan hamsuhbat bo‘lib yurgan bo‘lsa...

Shu xayolda uch soatni o‘tkazdim. Bir mahal komandirimiz o‘ziga xos bo‘lmagan betoqatlik bilan kelib qoldi.

(Davomi 3-sahifada).

SUHBAT

QUYOSH SANDONI

Suhbatdoshimiz – O‘zFA Materialshunoslik instituti direktori, akademik Odilxo‘ja PARPIYEV 1965-yil 30-sentyabrda tavallud topgan. 1990-yilda Toshkent davlat universitetini tamomlagan. O‘zFA Issiqlik fizikasi bo‘limi kichik ilmiy xodimi, O‘zbekiston Fan va texnika davlat komitetida boshqarma boshlig‘i, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari – Ijro apparati rahbari, Fan va texnologiya agentligi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari, “Fizika-Quyosh” IICHB bosh direktori lavozimlarida ishlagan. 40 dan ziyod ilmiy ishlar, jumladan, bir monografiya va EHM uchun dastur muallifi. Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

(Davomi 6-sahifada).





IZCHIL ISLOHOTLAR

kambag‘allikni tugatishga xizmat qiladi



Boshlanishi 1-sahifada.

Biroq, bugungi kunga kelib, bu ezgu maqsadga olib boradigan yo‘l silliq kechmayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz.

Ayni paytda insoniyat oqibatini oldindan aytib bo‘lmaydigan murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Dunyoda geosiyosiy keskinlik, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik tobora ortib bormoqda. Yer yuzida kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishlari, suv tanqisligi va pandemiyalar tufayli turli mintaqalarda og‘ir va mashaqqatli sinovlar paydo bo‘lyapti. Bu omillar nafaqat tabiiy muhitga, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ham jiddiy zarba berayotir. Natijada BRMga erishish yo‘lidagi yutuqlar sekinlashib, ba’zi sohalarda orqaga ketish kuzatilmoqda. Besh yil oldin dunyoda 650 million aholi kambag‘allikda yashagan bo‘lsa, bugun ularning soni 800 milliondan oshgani ham shundan dalolat beradi.

Ma’lumki, kambag‘allik yurtimizda ko‘p yillar yopiq mavzu bo‘lib keldi.

Faqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu haqda ochiq-oydin gapirildi va tariximizda birinchi marta kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda odamlarning haq-huquqini himoya qilish, ularni munosib ish joyi bilan ta’minlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan izchil islohotlar tufayli 7,5 million aholi kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasi 2024-yilda 8,9 foizga tushirildi. 2025-yil yakunigacha uni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Albatta, qisqa muddatda bunday natijalarga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi.

O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishish uchun yettita ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirmoqda. Eng avvalo, kambag‘al aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish o‘rinlarini ko‘paytirib, odamlar barqaror daromad manbasiga ega bo‘lishi uchun sharoit yaratilyapti. Faol investitsiya siyosati tufayli shu yilning o‘zida 35 milliard dollar sarmoya evaziga 9 mingdan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish o‘rni tashkil etilayotgani kambag‘allikni qisqartirishda muhim omil bo‘lmoqda. Qulay ishbilarmonlik muhiti hisobiga o‘tgan sakkiz yilda 700 ming tadbirkor o‘zining barqaror biznesiga ega bo‘ldi. E’tiborlisi, davlat biznesga sharoit yaratib bermoqda, tadbirkorlar esa o‘ziga ijtimoiy mas’uliyat olib, ehtiyojmand aholini ishli va daromadli qilishda ko‘makchi bo‘lmoqda. Mana shunday samarali hamkorlik tufayli shu yilning o‘zida 270 mingdan ziyod kambag‘al oila a’zosi doimiy ishli bo‘ldi.

Odamlarning bilimini oshirmasdan turib, ularni “kambag‘allik girdobi”dan chiqarish imkonsiz. Shu bois, sifatli ta’lim asosida inson kapitalini rivojlantirish uzoq muddatli istiqbolda kambag‘allikni qisqartirishning asosiy drayveri bo‘lib qoladi. So‘nggi besh yilda 800 mingdan ziyod aholi zamonaviy kasblarga o‘rgatilib, yuqori daromadli ishlarga joylashtirildi. Kelgusida xalqaro standartlar asosida Kasbga tayyorlash xalqaro markazlari tashkil etiladi, ularning bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar berish yo‘lga qo‘yiladi.

Bugun Prezidentimiz tashabbusi bilan xotin-qizlarni jamiyatning faol a’zosiga aylantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganiga barchamiz guvohmiz. Bolalarimizning bog‘chalardagi qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida 1 million ayollar ta’lim olish, kasb-hunar o‘rganish va daromad topish imkoniga ega bo‘ldi. Xotin-qizlarga oliygohda o‘qish uchun foizsiz kredit ajratish, magistraturada bepul ta’lim olish tizimi joriy etildi. Hozirgi kunda talabalarning 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani, shu yilning o‘zida 1 million 700 ming ayol ishli bo‘lgani quvonarlidir. Kelgusi yili ham “Raqamli avlod qizlari” dasturi doirasida 50 ming nafar qizlar yangi texnologiyalar bo‘yicha o‘qitiladi. Kelayotgan yildan mehnat bozorida ayollar uchun teng sharoit yaratish maqsadida ijtimoiy sug‘urta tizimi qamrovi keskin oshiriladi. Bu esa ularning kambag‘allikka tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Shuningdek, 140 ming kambag‘al oilaga shifokor biriktirilib, ularni yiliga bir marta to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Endi kafolatlangan tibbiy xizmatlar ko‘paytirilishi natijasida kam daromadli oilalarning bunga sarf qiladigan xarajati ikki karra qisqartiriladi.

Bunda ularga bepul dori va kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi taqdim etiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash – kambag‘allikka qarshi kurashda asosiy yo‘nalishlardan biri. Imkoniyati cheklangan aholining kambag‘allikka tushib qolish ehtimoli yuqori. Shu bois, ularni qo‘llab-quvvatlash, inklyuzivlik asosida jamiyatga integratsiya qilish bo‘yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Munosib mehnat sharoiti yaratilgani uchun bu yil nogironligi bor 150 ming nafar shaxs ishga joylashdi. Ularga zarur tibbiy jihoz va anjomlar bepul yetkazib berilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va kasbiy ta’lim bilan qamrab olish uchun alohida dasturlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish, albatta, kambag‘allikni qisqartirishda muhim qadam bo‘ladi. Shu maqsadda qariyb 3,5 million aholi yashaydigan, sharoiti og‘ir mingta mahallada infratuzilma yaxshilandi. Natijada shu yilning o‘zida 470 ming xonadonga qarashli tomorqaga suv bordi, yana 790 ming xonadonda elektr energiyasi ta’minoti yaxshilandi.

Kelgusi yili mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun yana 400 million dollar ajratish belgilandi. Bunda 32 ta tuman va ijtimoiy sharoiti og‘ir 328 ta mahalla tanlanib, ularni rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinadi. Shuningdek, 810 ta mahallada suv, kanalizatsiya, yo‘l, maktab va bog‘cha qurish bo‘yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Uy-joyga muhtoj va daromadi past aholiga ipoteka tizimidan foydalanish uchun har yili 200 million dollar subsidiya ajratiladi. Yaxshi ma’lumki, kambag‘allikni qisqartirishda “mahalla yettiligi” a’zolarining o‘rni katta. “Yettilik” faoliyati aholi bandligi va daromadlari ortishida bevosita yetakchi rol o‘ynashi lozim. Kelgusi yili kambag‘allik ko‘rsatkichini 4,5 foizgacha qisqartirish maqsad qilingan ekan, buning uchun mahallalarda ishlarni tashkil qilishga kompleks yondashish, barqaror bandlik yo‘nalishidagi xizmatlar qamrovini kengaytirish, daromad manbalarini yaratish, aholini kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy yondashuv doirasida “Bandlik organlari – ish beruvchilar hamkori”, “Teng imkon – inklyuziv bandlik”, “Barqaror kelajak sari”, “20 ta mahalliy brend”, “Bir kontur – bir mahsulot”, “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish”, “Ijara yer va tomorqada suv ta’minotini yaxshilash”, “Eski bog‘larni yangilash”, “1 ming gektar mevali bog‘”, “Eksportchi kooperativlar” kabi dasturlar bilan million nafar kambag‘al aholini qamrab olish rejalashtirilgan.

Kambag‘allik va ishsizlikni kamaytirishda mahallalarda kichik va o‘rta loyihalarni amalga oshirish, jumladan, chegara va anklav hududlarda infratuzilmani yaxshilash, tun-u kun ishlaydigan ko‘chalar, turistik mahallalar, mikrosanoat markazlarini tashkil etish, sohil va yo‘l bo‘yi infratuzilmalarini rivojlantirish taqozo etiladi.

Kambag‘allikni qisqartirish sohasidagi o‘ziga xos va boshqa mamlakatlardan tubdan farq qiladigan jihat – yurtimizda mahalla institutining mavjudligidir. O‘zini o‘zi boshqarishning mazkur noyob tuzilmasi jamiyat boshqaruvining eng quyi tayanch bo‘g‘inidir. Mahalladagi islohotlar aholi farovonligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish samaradorligiga bevosita ta’sir etadi. Mahallada har bir oilaning turmush darajasini monitoring qilish orqali yashash sharoiti, asosiy ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojlarini aniqlash imkoni mavjud. Shuning uchun kambag‘allik ko‘lamini obyektiv baholash, monitoring qilish, aniq chora-tadbirlar ko‘rishda mahallaning o‘rni va ahamiyati juda katta.

Mahallalarning “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash va yangi, jumladan, drayver loyihalarni amalga oshirishda tashabbuskorlarga ko‘maklashish, shu orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, mavjud imkoniyatlarni o‘rganish va samarali foydalanish orqali joylarda tadbirkorlik va raqobat muhitini yaxshilash, samaradorlik va daromadlilik tamoyillaridan kelib chiqib, tadbirkorlarga sifatli xizmat ko‘rsatish, maslahat berish va biznes rejalar tayyorlash uchun mijozga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bu jarayondagi muhim vazifalardan sanaladi.

Mana shunday keng ko‘lamli sa’y-harakatlar bilan O‘zbekiston 2030-yilga qadar kambag‘allikni ikki karra qisqartirish bo‘yicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishga intilmoqda va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida qat’iy qadamlar qo‘ymoqda.

Aminmizki, amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z samarasini beradi, inson qadri ulug‘langan yurtda har bir fuqaroning baxtli va farovon hayot kechirishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Jamoliddin BADALOV

FARMON VA IJRO

NAQD HAM, VAQT HAM TEJALADI

to‘lovlardagi yangi tartib haqida

O‘zbekistonda keyingi yillarda iqtisodiyotni shaffoflashtirish, zamonaviy to‘lov tizimlarini keng joriy etish, eng muhimi, odamlar uchun qulay va xavfsiz moliyaviy muhit yaratish yo‘lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, afsuski, bozorda hamon naqd pul aylanmasining yuqoriligi, turli sohalarda to‘lovlarning hisob-kitobga to‘liq kirmasligi, yashirin iqtisodiyotning saqlanib qolishi kabi muammolar yo‘q emas. Do‘kon yoki xizmat ko‘rsatuvchi maskanlarda unda-bunda “terminal ishlamaydi”, “faqat naqd olamiz” kabi gaplar uchrab turadi. Buning ortidan esa tadbirkorga ham, aholiga ham noqulaylik yuzaga kelmoqda.

Shu jihatdan, Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir qarashda, iqtisodda naqd pulning ortiqcha aylanishi oddiy hol ko‘rinadi, ammo uning ortida o‘ziga yarasha muammolar yotadi. Deylik, naqd pul ko‘p bo‘lsa, tovar narxi ustidagi nazorat sustlashishi oqibatida soliq tushumlarida kamayish yuzaga kelishi ehtimoli oshadi, bu esa korrupsiya holatlariga yo‘l ochishi mumkin. Odamlar orasida naqdini yo‘qotish, o‘g‘irlatish, qalbaki pul qabul qilib qo‘yish kabi xatarlar ham bor. Aslida, bundan ham katta yo‘qotish VAQT bilan bog‘liq. Ayniqsa, kommunal to‘lov yoki davlat xizmatlarini amalga oshirishda navbatlarda havoga uchayotgan vaqt. Qolaversa, xizmatlar uchun faqat naqdda hisob-kitob qilinishi zamonaviy hayot sur’atiga ham mos kelmaydi. Shu jihatdan hisob-kitoblarni raqamli formatga o‘tkazish iqtisod uchun ham, turmush tarzimiz uchun ham taklif etilayotgan o‘ziga xos qulaylik va xavfsizlikdir.



Farmon qanday o‘zgarishlarni taqdim etyapti?

2026-yil 1-apreldan boshlab bir qator yo‘nalishlarda to‘lovlar faqat bank kartalari yoki elektron tizimlar orqali bo‘ladi. Masalan, davlat xizmatlari, elektr, gaz, suv uchun to‘lovlar, alkogol va tamaki mahsulotlari, yoqilg‘i quyish shoxobchalari xizmatlari ana shu ro‘yxatga kiradi. Qiymati 25 million so‘mdan yuqori bo‘lgan tovar va xizmatlar, shuningdek ko‘chmas mulk va ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan yangi transport vositalari oldi-sotdisi ham faqat naqdsiz amalga oshirilishi bu sohadagi soxtaliklar, “ko‘rinar-ko‘rinmas” pul aylanmalarini keskin kamaytiradi.

Farmonning barchamizga eng yaqin va hayotda tez his etiladigan yangiligi – bu yagona QR-kod tizimining joriy etilishi. Bugun ko‘plab do‘kon va xizmat ko‘rsatish joylarida kassa yonida uch-to‘rtta turli bankka tegishli QR-kodlar qatorlashib turganini ko‘ramiz. Xaridor esa to‘lov qilayotganda ulardan qaysi birini “o‘qitish” kerakligini aniqlashga ozgina bo‘lsada vaqt sarflaydi, ba’zan kodlar orasidan tanlash qiyinlashib, to‘lov jarayoni sekinlashadi.

Yagona QR-kod esa bu ortiqcha tartiblarni yengillashtiradi. Yangi tartibga ko‘ra, barcha yuridik shaxslar uchun bitta universal QR-kod bo‘ladi, hamma to‘lov ilovalari uni o‘qiydi. Bu tartib 2026-yil yanvardan boshlab joriy etiladi, 1-iyuldan esa majburiy bo‘ladi.

Aslida, bu islohotlarning eng asosiy maqsadi oddiy aholining kundalik hayotini yengillashtirishga qaratilgan. Chunki to‘lovlarni elektron tarzda amalga oshirish imkoniyatlari kengaygani sayin odamlarni ko‘p bezovta qiladigan mayda, lekin har oy takrorlanadigan qiyinchiliklar yo‘qola boryapti. Masalan, kommunal to‘lovlarni to‘lash uchun bankka borish, navbat kutish, terminal ishlamay qolsa, boshqa joy izlab ovora bo‘lish kabi holatlar deyarli uchramaydi. Elektron to‘lovlar qulayligini aholi tushunib yetganiga ancha bo‘ldi.

To‘lovlarni raqamli formatga o‘tkazishning yana bir qulay tomoni shuki, barcha ma’lumotlar aniq va uzoq muddat saqlanadi. Qayerda, qachon va qancha to‘laganingiz haqidagi ma’lumot doimo qo‘lingizda bo‘ladi. Bu odamlarga o‘z hisob-kitobini boshqarishni yengillashtiradi, tushunmovchiliklar va ortiqcha sarsongarchiliklarni kamaytiradi.

Markaziy bank ma’lumotlari ham bu islohotlar zarurligini ko‘rsatib turibdi: mamlakatda aylanma naqd pul miqdori bir yil ichida deyarli 80 trillion so‘mga oshgan. Ya’ni, bozorda, do‘konlarda, xizmat ko‘rsatish joylarida naqd pul haddan tashqari ko‘paygan. Naqd qancha ko‘p bo‘lsa, uning qayerga ketganini nazorat qilish ham shuncha qiyin. Shu bois to‘lovlarni elektron shaklga o‘tkazish – hisob-kitobni tartibga solishning eng oson, ishonchli yo‘li.

Bir paytlar “faqat naqd yaxshi”, “pulni qo‘lda ushlab turish xavfsizroq” deb o‘ylagan aksar odamlarning o‘zi ham endi kartalarga o‘rganib qoldi. Maoshni kartada olamiz, xaridlarni karta bilan qilamiz. Shu ma’noda, elektron to‘lovlar ulushining oshib borishi tabiiy jarayon. Kundalik hayotda ham shunga ko‘nika boshlagandik, endi bu tizim yanada tartibli va bir xil qoida asosida ishlaydigan bo‘ladi.

Shukrullo KARIMOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Dastlab filologiya fanlari doktori, professor Maqsud Asadov yangi romandagi badiiy yechimlar va g‘oyaviy qatlamlar haqida o‘z mulohazalarini bildirdi. Keyin esa yozuvchi Mamatqul Hazratqulov va filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov so‘zga chiqib, Erkin A’zam ijodining o‘ziga xos qirralari, xususan yumoristik bayon uslubi, kinoyali va jonli tili, shuningdek, kutilmagan badiiy yechimlari bilan alohida ajralib turishini ta’kidladilar.

SAYRDAN SO‘NG

Filologiya fanlari doktori, professor Sanobar To‘laganova yangi asar haqida gapirarkan: “Erkin A’zam asarlarida voqelik kuzatuvchi nigohning nuqtayi nazari orqali ochib beriladi. Adib voqelikni ijtimoiy ko‘lamda yoritadi. Kinoya ohangidagi achchiq istehzo, kesatiq, piching ortidagi hazinlik o‘quvchiga ham “yuqtiriladi”. Haqiqat kinoyaga o‘rab beriladiki, o‘quvchi haqiqat bilan yuzma-yuz turadi”, dedi.

Shundan so‘ng filologiya fanlari nomzodi, professor Ergash Ochilov, filologiya fanlari doktori, professor Marhabo Qo‘chqorova va “Tafakkur” jurnali bo‘lim mudiri Nodira Afoqova ham so‘z olib, “Momaqaldiroq ostida sayr”ning badiiy xususiyatlariga e’tibor qaratdilar. Ta’kidlanishicha, yozuvchining inson tabiatidagi eng chigal jihatlarni ochiqdan ochiq emas, balki nozik ishoralar orqali ifoda etishi uning asarlariga o‘ziga xos ta’sirchanlik baxsh etadi. Shu ma’noda, romani ham jiddiy mushohada, ruhiy teranlik va badiiy ishoralarga boy asar sifatida e’tirof etildi.

Filologiya fanlari nomzodi Gulnoz Sattorova, adabiyotshunos va san’atshunos Iqbol Qo‘shshayeva, institutning O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi kichik ilmiy xodimi Shahnoza Rahmonova va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Mashhura Sheraliyeva ham ma’ruzalari orqali muhokama doirasini kengaytirdilar.

Taqdimotda onlayn tarzda qatnashgan talabalar va asar muallifi o‘rtasida kechgan savol-javob qismi ayniqsa qiziq bo‘ldi. Ulardan biri: “Momaqaldiroq ostida sayr” romani asosan jamiyat axloqi va inson munosabatlari mavzusiga bag‘ishlangan. Asar qahramoni – Oyravshan atrofidagi voqealar orqali jamiyatdagi axloqiy pasayish, odamgarchilik va oila qadriyatlarining holati ochib beriladi”, deya o‘z mulohazasini bildirdi. Muallif esa o‘zigagina xos nozik kinoya usulida adabiyotda didaktika, “odobnoma darsi” hukm suradigan davrlar allaqachon o‘tib ketgani haqida mushohada yuritdi. Shu tariqa, ishtirokchilarning har biri Erkin A’zam ijodining turli qirralariga to‘xtalib, uning o‘zbek adabiyotiga ulkan qo‘shgan hissasi va o‘ziga xos uslubini qayd etdilar. Xususan, ma’ruzalarda yozuvchining “Chapaklar va Chalpaklar mamlakati”, “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Chiroqlar o‘chmagan kecha”, “Kechikayotgan odam”, “Bayramdan boshqa kunlar”, “Javob” kabi asarlari hamda yangi romani o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, badiiy, uslubiy uyg‘unlik to‘g‘risida so‘z bordi.

Yarim asrlik samarali ijodiy mehnati davomida Erkin A’zam o‘ndan ortiq roman, qissa va hikoyalar to‘plami hamda yigirmaga yaqin ekran va sahna asarlarini yaratdi. “Momaqaldiroq ostida sayr” romani avvalroq “Sharq yulduzi” jurnalida (2025-yil, 6-son) e’lon qilingan va kitob ko‘rinishiga kelgunga qadar bir necha bor tahrirdan o‘tgan.

Adabiy anjumanda filologiya fanlari doktori, professor Sanobar To‘laganovaning “Erkin A’zam adabiy qo‘rg‘oni” asari ham e’tirof etildi. Ushbu to‘plamda atoqli adib shaxsi va ijodi haqidagi yangi fikrlar, xulosalar hamda poetik ahamiyatga molik talqinlar bayon etilgan. Shuningdek, unda yozuvchining badiiy dunyoqarashi, obraz yaratish mahorati, janrlar bilan ishlash uslubi hamda adabiy taraqqiyotda tutgan o‘rni puxta tahlil qilingan.

Shahriyor SHAVKAT

ASRGA TATIGULIK UCHRASHUV

Boshlanishi 1-sahifada.

“Omading bor ekan, askar! Chingiz og‘a uchrashuvga rozi bo‘ldi. O‘ziyam dangal odam ekan. Ammo-lekin seni ham yozuvchi deb yubordim. She’r-pe’ringdan ko‘tarib bor”, degancha nari ketdi.

Badanimdan sovuq ter chiqib ketdi. Kimsan, “Asrga tatigulik kun”, “Alvido, Gulsari!”, “Jamila” kabi asarlarni yozgan insonning oldiga “yozuvchiman” deb boramanmi? Kechirasiz, o‘rtoq komandir, Sibirning Tuva o‘lkasida oyog‘imdan sovuq o‘tsa-o‘tgandir, lekin miya faoliyatidan shikoyatim yo‘q!

Nihoyat, belgilangan vaqtda Enasoy sohiliga tushib bordik. Daryoga qarasam, anvoyi o‘tlar Marg‘ilon atlasiday tovlanadi, deng. Tomoqqa nedir tiqiladi, hayajonga yo‘yaman.

Mana, Chingiz og‘aga ko‘zim tushdi. Shu mahalgacha rangli-rangsiz suratlarini ko‘rib yurganimiz – buyuk yozuvchi bilan ota-boladay quchoqlashib ko‘rishdik. Xizmat qanday ketayotgani bilan qiziqdi. Turkona mulozamat bilan tushlikka taklif qildi. Dasturxon ustida suhbat qizidi.

– Jurnalist bo‘lmoqchiman, deng, – dedi Chingiz Aytmatov jilmayib. – Umuman olganda, taqdiringizni bog‘lamoqchi bo‘lgan hunar chakki emas. Umrimning ko‘p qismi ijodiy safarlarda kechgan. Tog‘-u toshlarni, dasht-u biyobonlar, daryo-ko‘llar, dalalar, o‘tloqlarni bearmon kezganman. Turli kasb egalari bilan qadrdonlashib, el bo‘lib ketganman...

Bu so‘zlardan “endi shu hunardan qolma, odamlarni kuzat – shu sening taqdiring”, degan bir ma’noni anglaganday bo‘ldim. Yoshlik havasi aniq maqsadga aylandi. Shu uchrashuvni sharh etish uchun ham jurnalist bo‘lishim shart edi go‘yo.

Suhbat mavzusi o‘z-o‘zidan turkiy xalqlarning muqaddas meroslaridan bo‘lgan Enasoy tarixiga ko‘chdi. Chingiz og‘aning “Oq kema” qissasidagi she’r esingizdami?

– Ko‘nglimdagini aytsam, Tuva kengliklarini, to‘lib-toshib oqadigan Enasoyni sevaman. Moskvada oliy adabiyot institutida o‘qib yurganimda ham, undan so‘ng ham ko‘p bor turkiylarning or-nomusini, latofatini entikib sog‘inishim hamon oyoqlarim beixtiyor shu yoqqa boshlardi. Bu daryoning mavjudligi, uning sir-sanoati haqida bolaligimda zo‘r qo‘bizchi Aytmat bobomdan ko‘p eshitgandim. Och pushtirang to‘lqinlar pishqiradi. Ulkan daryo ustida suv qushlari shovqin solib “gap bozori”ni qizitadi. Tumshuqlarini suvga tiqib ho‘rak izlab topadi. O‘zi men daryo sohili bo‘ylab tanho sayr qilishni, adoqsiz xayollarga cho‘mishni yaxshi ko‘raman, – deya xiyla sukutga cho‘mdi Chingiz og‘a.

Shu kuni adibning gurungga mayli bor ekanmi, hayotidagi qiziq voqeani shunday hikoya qilib berdi:

“Bir gal Talasga borsam, Boz aka (to‘liq ismi Bozorboy) “shaharda siqilib ketgandirsan”, deb tog‘ga sudradi. Cho‘pon manzilga borguncha og‘zidan bol tomib, uchragan o‘simliklar, qushlar, hayvonlar to‘g‘risida gapirib bordi (Qani endi, imkonim bo‘lganida, nuqul tog‘lardagi buloqlar-u chashmalar, maysalar-u chechaklar, lochinlar-u burgutlar, arxarlar-u ilvirslar, turfa qushlar to‘g‘risida asarlar yozgan bo‘lardim). Kun nayza bo‘yi ko‘tarilgan, peshin og‘ishiga hali vaqt bor edi.

Bir payt o‘ngirlar orqali orqa-oldiga qaramay, lo‘killaganicha ketayotgan bo‘rilar galasini ko‘rib qoldik. Ortidan sezdirmasdan, izma-iz boraverdik. Qashqirlar so‘qmoq yo‘ldan vodiyga enib borardi. Oldinda kallasi katta, bo‘yni yo‘g‘on arslon bo‘ri ildamlar, uning orqasidan tag‘in yettita bo‘ri marosimdan qolmaslik uchun ergashib borardi. Ayniqsa, tepadan ularning har bir harakati aniq ko‘rinib turardi.

Hademay qish bostirib keladi. Ana o‘shanda bu yerga tizzabo‘yi qor yog‘adi. Bo‘rilarga esa qorin to‘yg‘izish tashvishi tushadi. Agar o‘lja topsa, yayrab-yayrab, quvonib changini chiqaradi. Bordi-yu yegulik topilmasa...

Ortidan tushganimizni jonivorlar sezmasligi mumkin emasdi. Lekin bu o‘jar bo‘rilar qochishni xayoliga ham keltirmasdi. Birozdan so‘ng shunday bir holat yuz berdiki, aytgan bilan birov ishonishi amrimahol. Bo‘rilar buloq atrofida doira yasab, ko‘kka qarab uvlay boshladi. Bu yovvoyi tovush emas, rostakam nola-yu afg‘on edi. Ular taxminan shunday deb yolvorardi: “Ey, Qodir Egam! Bo‘ri qavmi uchun tirikchilik sharbatini simirish, xotirjam, tinch hayot kechirish tobora qiyinlashib borayotir. Tabiatdagi ulushimiz toraymoqda. Ustiga ustak odamzodning ta’qiblari... Sonimiz kamaydi. Ko‘plab qavmdoshlarimizni qiyratishdi. Bu ketishda bo‘ri qavmi uchun ov qiladigan yerlar, o‘lja oladigan jonivorlar qolmaydi-ku?! Shunday bo‘lgach, biz nasl qoldirish baxtidan mosuvo bo‘lamiz-ku? O‘zing biz bo‘rilarga rahm et, mushkulimizni oson et!” Buni ko‘rgan cho‘pon og‘am ham yig‘lab yuborgandi o‘shanda...”

Aytishicha, bu voqea o‘n bir yoshida bo‘lib o‘tgan va Chingiz og‘aning yuragida chuqur iz qoldirgan. Ijodkorning dili tubidan otilib chiqqan quyidagi so‘zlar ham meni befarq qoldirmadi:

– Uzoq yillar bo‘rilarni o‘rgandim, fikr yuritdim, maxluqlar tabiatini miridan sirigacha bilib oldim. Xo‘sh, nima uchun? Toshchaynar va Akbaraga o‘xshagan qilni qirq yoradigan, chayir, qo‘rquv nimaligini bilmaydigan nomdor bo‘rilarni “Qiyomat” romanimga qahramon qilib olish uchun. Salobatli va mahobatli tog‘ bag‘rida, Bozorboy cho‘pon otarida ko‘rganim – Toshchaynarni eslab, uning xarakterini yaratishga bel bog‘ladim. Oqibatda, voqealarga o‘quvchilarni ishontira oldim.

Chingiz og‘aning so‘zlarini tinglar ekanman, uning nasrida reallik va romantika uyg‘unlashib ketgani sabablarini anglay boshladim. Ha, buyuk adib ona tabiat bilan bir bo‘lib o‘ylar va o‘ylarini oq qog‘ozga mahorat bilan muhrlar, g‘aroyib jihati, u texnika asri yutuqlaridan foydalanmasdan, faqat ruchkada yozar ekan. “Barmoqlarim yozuv nafosatini, mashaqqatini his etsin, deyman-da” deb buyuk adib horg‘in jilmayib qo‘ydi.

O‘tgan vaqt mobaynida ko‘plab ulug‘ ijodkorlar bilan hamsuhbat bo‘ldim. Ammo umrimning eng unutilmas kuni – Chingiz Aytmatov suhbatiga musharraf bo‘lgan kunim edi. Men uchun o‘sha gurung hamon davom etmoqda. Qanday qilib? Mutolaa orqali...

Ulug‘bek JUMAYEV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

UYG‘OQ XOTIRA

BUYUKLIK ODDIYLIKDADIR

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov umri davomida Vatan mustaqilligi uchun kurashgan jadid namoyandalarining mashaqqatga to‘la hayoti va serqirra ijodi haqida qator ilmiy-adabiy tadqiqotlar yaratdi.

Olim “Kitob dunyosi” gazetasida 2015-yil 25-noyabrda chop etilgan “Otam, bolalik va ilk maqola...” nomli xotirasida: “She’riyatga mehrim ko‘proq bo‘lgani uchun yaxshi ko‘rgan she’rlarimni bir o‘qishda yodlab olib, uyda hech kim bo‘lmagan paytda bor ovoz bilan o‘qib, rohat qilardim”, deb yozadi. Adabiyotga muhabbati keyinchalik uni Cho‘lpon, Hamza, Usmon Nosir, Elbek, Botu, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Mirtemir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari yirik shoirlar ijodini chuqur o‘rganish va tadqiq etishga undadi.



Mustaqillikning dastlabki yillarida adabiyotshunos olimning ilmiy faoliyati yuksak pog‘onalarga ko‘tarildi. U bu davrda XX asr o‘zbek adabiyotining hali qo‘l urilmagan jihatlariga e’tibor qaratib, salmoqli ilmiy-adabiy tadqiqotlar yaratishga erishdi. “XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyot tendensiyalari va milliy istiqlol mafkurasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Turli yillarda “Ma’rifatparvarlar jamiyati”, “Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish” bo‘yicha jamoatchilik komissiyasi, “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi rayosatiga raislik qildi, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyini boshqardi.

Fidoyi olimning qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida olib borgan muhim xizmatlaridan biri “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyiga asos solishdagi hissasidir. U eksponatlarni boyitish, qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga oid manbalarni yig‘ishga samarali ulush qo‘shdi.

Naim Karimov badiiy tarjima sohasida ham barakali ijod qilib, xususan, arman shoirlari Shushanik Kurginyanning “Qandillarni o‘chiring”, Avetik Isaakyanning “Xastaman, azizam”, belarus shoiri Yakub Kolasning “Talash bobo”, tojik shoiri Abdusalom Dehotiyning “Feruzaxon uxlaydi” asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girdi.

Olimning yirik tadqiqotlaridan biri – “XX asr adabiyoti manzaralari” nomli birinchi kitobida jadid adabiyotining yetuk vakillari, ularning hayoti va ijodi haqida batafsil ilmiy ma’lumotlar berilgan. Olim mazkur kitobga tartib berishda umri davomida olib borgan izlanishlaridan kelib chiqib, mavzuning tadqiqotchilarga kam ma’lum bo‘lgan jihatlarini yoritishga, shu bilan birga, har bir yozuvchining hayoti va ijodiga nazar tashlash orqali XX asrdek murakkab davr manzarasining eng muhim siyosiy-ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy lavhalarini yoritib berishga muvaffaq bo‘lgan.

Muallif tadqiqot jarayonida shoir-yozuvchilarning turk adabiyoti namunalaridan ta’sirlangan jihatlari, adabiy aloqalari haqida ham ma’lumot berib o‘tadi. Xususan, Fitrat ijodining shakllanishida Turkiya safarining ta’sirini shunday yozadi: “1909-yilda Buxoroda tashkil etilgan “Tarbiyayi atfol” jamiyatining yordami bilan bir necha buxorolik yoshlar bilan birga Turkiyaga borib, Istanbuldagi dorulmualliminda o‘qidi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, shu davrda hatto uning o‘zi ham Istanbuldagi o‘quv yurtlardan birida dars bergan. Fitrat ayni paytda “Buxoro tamimi (umumiy) maorif jamiyati”ni tashkil etib, Turkiyaga o‘qishga kelgan vatandoshlarining shu jamiyat atrofida uyushishi va tahsil ko‘rishiga rahbarlik qildi. Eng muhimi, safar taassurotlari va yosh usmonlilar harakati ta’sirida Fitrat dunyoqarashida keskin o‘zgarish yuz berdi”.

Akademikning Oybek hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy-adabiy izlanishlari ham diqqatni tortadi. Oybek xastalik tufayli yotib qolganda ham ijoddan to‘xtamaganini, adib uchun iste’dod barobarida iroda ham naqadar zarur ekanini ibrat ma’nosida ta’kidlaydi.

Oybek satrlarida aks etgan kuchli iztirob va qalb tug‘yonlari, kelajakka bo‘lgan umid va ishonch olimga ham bitmas-tuganmas ilhom bag‘ishlaydi. “Ilhom chashmasining ajib mavjlari (Oybek ijodxonasiga bir nazar)”, “Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar (Oybekning tugallanmagan asarlari to‘g‘risida)”, “Oybek (Mashhur o‘zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar)”, “Oybek va Zarifa” singari yirik tadqiqotlar shular jumlasidan.

Zahmatkash olim Mahmudxo‘ja Behbudiy, Xislat, Miskin, Tavallo, Hoji Muin, G‘ulom Zafariy, Abdulla Qodiriy singari o‘zbek jadid adabiyotining darg‘alari hamda o‘sha davrlardagi adabiy harakatlar, ularning maqsad va vazifalari haqida ham jiddiy izlanishlar olib bordi. Bu izlanishlar uning “Cho‘lpon”, “Maqsud Shayxzoda”, “Hamid Olimjon”, “Usmon Nosir” singari ma’rifiy romanlarida ham aks etib turibdi.

Atoqli olim Ozod Sharafiddinovning: “Hoy, yaxshilar, tevarak-atrofingizga qarang – oddiylik qiyofasida yurgan ulug‘larga befarq bo‘lmang! Ularning qo‘lini olib, suhbatidan bahramand bo‘ling!” degan gaplari bor. Biz uchun Naim Karimov shunday – oddiy qiyofada yurgan buyuk inson edi. Ustozimizning o‘z kasbiga mislsiz sadoqati, fidoyiligi hammamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun o‘rnak bo‘lishi zarur.

Poshshajon KENJAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori

ABADIYAT ORALAB

“...KO‘NGIL BOG‘IMDA...”

Muallifi aytilmasa ham satrlari allaqachon xalq mulkiga aylangan, ya’nikim, mangulikka muhrlangan shoirlar bor. “Alpomish”ni kim yozganini bilamizmi? “Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak”ka kim mualliflik huquqini da’vo qiladi?

Ba’zan kitobxonlik saviyasi past deb goh kattalardan, goh yoshlardan yozg‘irib qolamiz. Lekin adabiyotdan so‘z ochsangiz “bilmayman” deb yelka qisadiganlar ham “Vodiylarni yayov kezganda” deb boshlasangiz, albatta, “Bir ajib his bor edi manda” deya davom ettirib ketadi. Xuddi shu hol quyidagi satrlarda ham takrorlanishiga aminman:

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda...
* * *
Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...
* * *
Xayolimda bo‘lding uzzu-kun,
Seni izlab qirg‘oqqa bordim...

Endi, xolisanillo aytganda, bir shoirdan bashariyatga va abadiyatga qolsa, uch-to‘rtta she’r qoladi. Shuyam kimga nasib qiladi, kimga yo‘q. Hamid Olimjon ana shunday baxtli ijodkorlardan.

“Shodlik va baxt kuychisi” deb sharaflanadigan shoirni murakkab davrning po‘rtanalari beayov iskanjaga olganini bilamiz. Gyote “Hatto qabr yoqasida ham umid yashaydi”, deb yozgandi. Hamid Olimjon XX asrning 30-40-yillarida



o‘zbek she’riyatida ana shu umid shamini tutgan ijodkorlardan bo‘ldi. U shaxsiy dardlarini, g‘am-alamlarini elga doston qilmadi. O‘zi shundoq ham kulrang va qora ranglarga burkangan hayotda ezilayotgan xalqi qalbiga toza nur taratdi.

Cho‘lpon “Muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni”, deya qog‘oz qoralagani bor gap. Ammo yolg‘izmidi u? Oybek, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda... ham shu safda edi. U paytlar zamon shunday edi.

Erix Mariya Remarkning “Qaytish” romanida kichik epizod bor: urushdan qaytgan askarlarni frontortida yurgan o‘smirlar kalaka qilib, ularga hujum qiladi. Mustamlaka davrida qalam tebratgan shoir-yozuvchilarning ijodini, harakatlari yoki harakatsizligini bugundan, omon-omon zamondan turib to‘g‘ri baholay olyapmizmi? Ularga ijtimoiy tarmoqlarda, hatto, asarlarida ochiqchasiga tosh otayotganlarning ma’naviy haqqi bormi bunga? Agar o‘shalarning o‘zi o‘sha davrda yashaganda qanday yo‘l tutardi?

Ustozlar aytadiki, “Ijodkorga uning hayoti va faoliyatiga qarab emas, asl ijod mahsullariga qarab baho berish kerak. Ijodkorning yuragi, haqiqiy qiyofasi o‘sha yerda ochiladi. Qolaversa, aslida nima bo‘lganini hech kim bilmaydi. Qog‘ozlarga kelsak, ularni to‘ldirganlar ham mustamlakachilarning o‘zi edi”.

Shoir she’rlarini sinchiklab qarasak, Hamid Olimjonning baxt va shodlik kuychisi ekaniga ham ishonging kelmaydi. Deyarli har bir she’rida ichki mung, iztirob yotadi. Bu xuddi yuzi kulib, ko‘zida yosh aylanib turgan odam qiyofasini esga soladi:

Ko‘zi yoshliqlarning bordir yo‘ldoshi...
* * *
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.
* * *
Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham
yanog‘ing uzra xol bo‘lsam...

Hamid Olimjon qish faslida tug‘ildi. Shoirning umri mustamlaka zulmati va qahratonida o‘tdi. Lekin shoir bularni ijodiga yo‘latmadi. Agar Hamid Olimjon ijodi suratga solinsa, albatta, bahor manzarasi hosil bo‘lardi. Ko‘klamning ne’matlaridan bahra olish barobarida uning seli, toshqini, ko‘chkisi, gulduraklaridan ham yuz o‘girmaslik kerak. Alisher Navoiy lutf etgani kabi: “Aningdek qish ichra muningdek bahor”.

O‘ktam HAMRAALI



“Dunyodagi eng uzoq yo‘l, bu qalbdan qalbgacha bo‘lgan masofadir.

Shams TABRIZIY



Koshg'ariy

Boshlanishi 1-sahifada.

Ma’lumki, Koshg‘ariy devonining izoh va tushuntirish matnlari arab tilida yozilgan. Uni turkiy tillarga birinchi tarjima qilgan o‘zbek olimi Xolid Said Xo‘jayev edi. Afsuski, bu tarjima nashr qilinmay qolib ketgan. Xolid Saidning taqdiri atoqli shoir Maqsud Shayxzoda taqdiriga o‘xshash: Xolid Said O‘zbekistondan Ozarbayjonga borib yashab, shu yerda ijod qilgan edi. Taassufki, Ozarbayjon Fanlar akademiyasining tilshunoslik bo‘limida mehnat qilayotgan ma’rifatparvar olim 1937-yilda qatag‘onga uchrab, qatl qilingan. Aytgancha, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini ilk bor ozar tiliga o‘girgan tarjimon ham Xolid Said edi.

Devonning turkcha tarjimalari orasida professor Basim Atalay tomonidan 1939–1941-yillarda tayyorlangan nashr qanday muhim o‘rin tutsa, filologiya fanlari doktori Solihqori Mutallibovning o‘zbek tiliga qilgan tarjimasi biz uchun shunday qadrlidir. Ushbu tarjima 1960–1963-yillarda “Fan” nashriyotida chop etilgan. Qo‘limizdagi kitob mana shu tarjimaga asoslangan. Uni O‘zFA akademigi Alibek Rustamov, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev nashrga tayyorlagan. Taniqli olimlar Hamidulla Dadaboyev mas’ul, Baxtiyor Isabekov ilmiy muharrirlik qilgan. Kitob avvalida yozilishicha, nashr turk, uyg‘ur va rus tillaridagi tarjimalar bilan solishtirilgan, izohlari to‘ldirilgan, tarjimadagi ayrim xatoliklar isloh qilingan, boshqa nashrlar bilan qiyoslangan.

Quyida tahlilga olinayotgan misollar devonning faqat birinchi jildiga oid ekanini aytib o‘tishim kerak. Chunki o‘zim hali shu jildni o‘qidim, ayni paytda ikkinchi jild mutolaasi davom etmoqda. Aytish joizki, devonni o‘qish, so‘ng uni uqish oson mashg‘ulot emas, kitobxondan jiddiy qunt va vaqt talab qiladi.

ENG AVVALO SO‘Z...

Devondagi har bir so‘z tirik, har birining joni bor, ularni his qilish, hatto ushlab ko‘rish mumkin. Bu so‘zlar ko‘hna davr odamlariga o‘xshaydi, birorta ortiqcha “qilig‘i”, jimjimasi yo‘q – barchasi oddiy, to‘g‘ri va rost xabarni beradi. Har bir so‘zning o‘z tasviri, qiyofasi bor. Qadim qiyofadagi so‘zni o‘zining ajdodi bo‘lmish bugungi so‘z bilan yonma-yon qo‘yib, ularni sinchiklab kuzatsangiz, ibtidoiy davrda hayvon terisini yopingan va bugungi kun urfi bo‘yicha po‘rim kiyingan ikki inson tasviri ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi. Xuddi kiyinish madaniyati tuslanib borgani singari insonning so‘zlari ham o‘zgarib borishini ko‘rish mumkin.

Masalan, devonda “qurun” so‘ziga “devor va shiplardagi tutun islari” deb izoh berilgan. Vaqt o‘tishi bilan oxirgi harf o‘zgargan, bu, albatta, biz hozir ishlatadigan “qurum” so‘zidir. Aynan “qurum” so‘zi esa boshqa bir o‘rinda keladi, Koshg‘ariy izohicha, uning ma’nosi “qoya”dir. Markaziy Osiyodagi eng baland tog‘ tizmalaridan biri Qoraqurum deb nom olgani ehtimol shundandir. Tarixda Chingizxon imperiyasi poytaxti bo‘lgan Qoraqurum shahri, fikrimizcha, bundan mustasno, u mo‘g‘ulcha “Xarxorum”ning turkiy talaffuzidir. Ha-ya, devonda “qurum”ga qo‘shimcha izoh ham bor: “yig‘ilgan ko‘p molga ham qurum deyiladi”.

Qadimgi “suchik” – “har bir shirin narsa”. Bu, bizdagi “chuchuk”dir. Xuddi shuningdek, “chazan” bora-bora “chayon”ga, “qag‘un” – “qovun”, “quzug‘” – “quduq”, “sag‘iz” – “saqich”, “qazg‘u” – “qayg‘u”, “qirag‘u” – “qirov”, “tumag‘u” – “tumov”, “targ‘aq” – “taroq”, “tamg‘aq” – “tomoq”, “uvut” – “uyat”, “sazrak” – “siyrak”, “quzurchuq” – “qo‘g‘irchoq”-qa aylangan.

Devonga ko‘ra, “chatir” – bugungi “chodir”. U hozir faqat “o‘rgamchining chotiri” degan jumlada o‘z asliga yaqin qiyofani saqlab qolgan. Bugun bo‘g‘iz, halqumni hech kim devondagi kabi “bug‘az” demaydi. Lekin bir o‘rinda bu so‘z ham yashab kelmoqda: masalan, “Bering bo‘g‘ozi” kabi. Devonda “qug‘ush” va “quvuq” so‘zlari bor. “Qug‘ush” – “suv yo‘li, tarnov” hamda “quvuq” – “kavak”dir. O‘ylab ko‘ring, har ikki so‘z ham mazmunan, ham ohang jihatidan bugungi “quvur”ga qarindosh kelmayaptimi?

Bugun bir-biridan tez-tez “o‘pkalaydigan” kishilar ko‘p. Agar qadim ajdodlarimiz bir-biridan “o‘pkalasa”, bu “o‘pkasiga urdi” degan aniq zarbani ifodalagan, shu bois, ular bungacha bormagan, ya’ni “o‘pka” emas, “o‘pkilagan”. Devonda “tag‘ar” – “bug‘doy va boshqa narsalar solinadigan qop”dir, bugun bizda “tog‘ora” bor, lekin u qop emas, idishdir.

“Og” so‘zining ham tarixi qiziq. Devonda bu so‘z “aql va ziyraklik” deb izohlangan. Bu – bizning “ong”imizga yaqin-ku! “Shuning uchun yoshi ulug‘ va aqllilarga oga laqabi beriladi”, deya qo‘shimcha ma’lumot aytadi Koshg‘ariy. “Oga” bugungi “og‘a”mizning chin og‘asi emasmi? Boshqa bir o‘rinda: “oga so‘zi aslida Zulqarnayn zamonida Zulqarnayn bilan turklarning bitishuvidan oldin ularning oldingi qo‘shinlari orasidagi to‘qnashuvda yuzaga kelgan”, degan ta’rifni ham nazarda tutmoq lozim.

Qiziqarli so‘zlardan yana biri “tapuk”dir. Izohda unga “tepish, tepkilash” degan ma’no berilgan. Ko‘rinib turibdiki, bu so‘zning o‘zagi – “tap”. Endi, ayting-chi, bugun “to‘p tep” deyar bo‘lsak, qadimgi bir so‘zni ikki bora takrorlagan bo‘lmaymizmi – “to‘p” ham, “tep” ham “tap”ga borib tutashmayaptimi? Keyinroq “tobiq” degan so‘z ham keladi: “chavgon bilan uriladigan koptok, to‘p” deyilgan.

Kitobda “chanqa” so‘zi “bir xil tuzoq” deb izohlangan. Chanqovuz ham tuzoqqa o‘xshab ketgani uchun shu nomni olgan bo‘lishi mumkin. “Chipqan” degani, aslida – jilon jiyda. “Chipqon yarasi qizillikda jilon jiydaga o‘xshagani uchun shunday atalgan”, deydi Koshg‘ariy. “Bir yurtlik ikki kishiga yerdash deyiladi. Birodar, yaqinga qadash deyiladi; asli idish ma’nosidagi “qa”dir. Unga “dash” qo‘shilgach, bir idishdosh, bir qorindosh ma’nosini anglatadi”, deyiladi devonda.

Qadim so‘zlar va ularning izohlari bilan tanishar ekansiz, negadir, o‘sha ko‘hna qiyofadagi so‘z ko‘zingizga issiqroq ko‘rinadi, chunki u bosh So‘zga – o‘zining ilk va tub ma’nosiga juda-juda yaqindir.

BUGUN HAM QO‘LLASAK BO‘LADI

Ayni paytda Vazirlar Mahkamasining davlat tilini rivojlantirish departamenti chet tillardan olingan bir qator so‘z va atamalarni o‘zbekchaga o‘girib, rasmiy muomalaga kiritayotganini olqishlash kerak. Devon sahifalarida bu masalada bizga yordami tegadigan, ya’ni bugun ham yaraydigan, nafaqat yarash, hatto biz uchun zarur bo‘lgan so‘zlar juda ko‘p.

Mana, masalan, turli idoralarda ishlaydiganlar, aksar rahbar huzuriga xat-hujjat olib kiradigan mas‘ul shaxslar foydalanadigan, karton, charm va shu kabilardan yasalgan qalin jild yoki muqova bor, yana bir keng ommalashgan nomi – “papka”. Koshg‘ariy bobo – saroy ish yuritish tartiblarini juda yaxshi biladigan inson, bu borada aniq tavsiya beradi: “kusurga”, ya’ni ichiga “qog‘ozlar solinadigan muqova”.

Biz ko‘proq arab yoki forsiy tillaridan olib ishlatadigan so‘zlarning asl turkiychasi devonda mavjud. Quyida bunga bir qator misollar keltiramiz. Uy shiftini devon “tarus” deb taqdim qiladi. “Sizig‘” – “tishlar oralig‘i”, hozir bizda buning aniq atamasi yo‘q. “Bu so‘zni sizig‘dan sizitma – bu sirni tishlaring orasidan chiqarma”, deb misol keltiriladi asarda. Xolaning o‘g‘li ko‘p hududlarimizda “bo‘la”, ba’zi joylarda “jiyan” deyiladi. Aslida, “jiyan” xolaning emas, ammaning o‘g‘li. Demak, devon tavsiyasidan – “chiqan” atamasidan qo‘shimcha foydalanishimiz mumkin.

Ayni paytda, o‘zbek tilining faol so‘zlashuv nutqida “konus” so‘ziga tarjima yo‘q. Devonda “konus shaklidagi narsa” “qirma” deb ataladi. Yana bir o‘rinda ichimlik solinadigan, “konus shaklidagi tagi tor, og‘i keng idish, chog‘ir idishi” “sag‘ir” deyilishi ham aytiladi. “Sag‘ir”ning kelib chiqishi “solg‘ir”dan bo‘lsa, ehtimol. Mana, yomg‘irdan so‘ng chiqadigan “kamalak” uchun ham sof turkiy atama – “yel kokan”.

Devondan kelib chiqqan holda, xazina, turli mollar turadigan joyni – “tavarliq”, gardishni – “chig‘ri”, dasturxonni – “tavsi”, darvozani – “qapg‘a”, pashshani – “qudg‘u” yoki “kumicha”, qarzni – “bargu”, guvohni – “tanuq” va guvohlikni – “tanuqluq”, so‘z va gapga sinonim – “kalachu”, yuk ortish yoki minish mumkin bo‘lgan ulov, avtomobilni – “ko‘luk”, ertalabki ovqat, tamaddi, nonushtani – “tutg‘uch”, majburiy ish, jarimani – “rabyat” *(bundagi “rab” o‘zagi rus tilidagi “qul, asir, banda” ma’nosidagi so‘z bilan aloqador emasmikan?)*, do‘st, o‘rtoqni – “sag‘dich”, ahmoq odamni “munduz”, odamlar orasidagi va’da, ahdni – “bichg‘as”, bir hovlida turuvchi qo‘shnini – “kirdash” (“kiruvchi” ma’nosida), loviyani – “burchaq”, har doim ishlatadigan matohimiz bo‘lmish dastro‘molni – “suvluq”, cho‘ntakni – “kunchuk”, g‘ovur-g‘uvurni – “kochrum” (“Bu – shaharning qishloq ahliga yoqmaydigan jihati”, degan qo‘shimcha izoh ham beriladi devonda), turkcha bilmaydigan kishini – “sumlim”, jimjiloq yonidagi, biz odatda uzuk taqiladigan yoki nomsiz ataydigan barmoqni – “jijamuq” (Koshg‘ariy ham “Buni kam odam biladi”, deb eskartib o‘tadi), bulbulni – “sanduvach”, sa’vani – “sundilach”, bedanani – “budursin”, baqlajonni – “butuga”, guruchni – “tuturqan” deb ishlatishimiz mumkin.

O‘z navbatida, “utug” (dazmol), “tavar” (jonli, jonsiz mol, tovar), “partu” (yaxtak, bir qavatli ustki to‘n, partuq), “kerpich” (g‘isht, Alisher Navoiy bobomizning “Lison ut-tayr” asarida kelgan eng ta’sirchan hikoya – Shayx San’on qissasida bunga zo‘r misol bor: “Kirpichi dard-u balo tufrog‘idin”), “nijdag‘” (qayroqtosh), “qaftan” (to‘n, ustki kiyim) kabi o‘z so‘zimiz bo‘lgan va qadimda tilimizda faol ishlatilgan atamalarni ham begona qilmasligimiz, maqsadga muvofiqdir.

HAR BIR SO‘ZDA BIR TARIX BOR

Har bir so‘z zamirida o‘sha so‘z sohibi bo‘lgan xalqning tarixi, urf-odat va an’analari aks etishi ham haqiqat. Devonda bunga ham misollar talay. Masalan, asarda yozilishicha: “qirg‘iz, yaboqu, qipchoq va boshqalar biror kishiga qasam ichirganda yoki undan biror narsaga va’da olganda, qilichni uning oldiga ko‘ndalang qo‘yib, “Bu ko‘k kirsun, qizil chiqsun”, deydilar. Ya’ni, va’da buzilsa, bu ko‘k kirsin, qizil chiqsin, ya’ni qonga belanib chiqsin. Bu, ahd buzilsa, temir seni o‘ldirsin, o‘ch olsin, demakdir. Chunki ular temirni hurmat qiladilar”.

“Sig‘ir” so‘zi devonda ikki ma’noda keladi. Biri, siz-u biz biladigan sigir. Ikkinchi ma’nosi “shohlarning bir qancha odamlar bilan qiladigan ovi”ga bog‘liq. An’anaga ko‘ra, “shoh bir qancha odamlarni o‘rmon va dashtlardan o‘z tomoniga ov hayvonlarini haydab kelishga yuboradi. Ular hayvonlarni to‘plab kelgach, shoh qiyinchiliksiz, bemalol ov qiladi”.

“Sufra”ning asl ma’nosi musofir uchun qilingan taom bo‘lsa ham, keyinchalik u taom yoziladigan teridan qilingan dasturxonga nisbatan qo‘llangan. Demak, musofir odamga e’tibor ko‘rsatish, uning oldiga atay taom – sufra tayyorlab chiqish avvaldan turkiy xalqlarda udum bo‘lgan. Yana yo‘lga, safarga otlangan tanish va yaqinlarga chiqarib beriladigan ovqat hadyasi ham bor, bu – “tuzg‘u”dir. O‘sha damlarda ma’lum sabab bilan ariq qazishga, to‘g‘on bo‘g‘ishga chiqmaganlardan qishloq oqsoqoli maxsus soliq olgani, bu soliq turining nomi “chatiba” bo‘lganini ham devondan bilib olamiz.

Ko‘pchilikka yaxshi ma’lum bo‘lgan “tegin” nomi aslida qul demakdir. “Alp Erto‘nganing bolalari... otalariga hurmat yuzasidan o‘zlarini kamsitib, “qulingiz falon qildi” deb, “qulingiz” o‘rnida “tegin” so‘zini ishlatar edilar. So‘ng bu so‘z ularga ot bo‘lib qoldi. Boshqa qullardan ajratish uchun bu so‘zning yoniga yana bir narsa qo‘shib ishlatiladi”, deyiladi devonda. Albatta, otaga hurmat azaldan qonimizda bo‘lgan. “Tegit – tegin so‘zining ko‘pligi, – deydi Koshg‘ariy. – (Lekin) Bu shakldagi ko‘plik qoidaga xilofdir”.

Uzoq davrlarda shoshilinch xabarni bir manzilga yetkazish uchun qanchalik zahmat chekilgani, eng muhimi, xabarni yetkazish usullari joriy etilganini ham devondagi birgina so‘z bizga anglatadi: “chufg‘a – shoshilinch choparning yo‘lda oladigan oti, ma’lum manzilga yetganda, uni qoldirib, boshqasini minadi”. Insoniyat qo‘limizdagi oddiy telefonning imkoniyatiga yetib kelguniga qadar qancha asrlar-u mashaqqatlarni bosib o‘tmagan deysiz.

Kitobda keltirilgan yana bir so‘z orqali ilgari erkak kishilar ham orqa sochini o‘stirib yurganini taxmin qilish mumkin. Erkaklarning orqaga osiltirib qo‘ygan sochi “salundi” deb atalgan. Bugun biz ishlatadigan, davlatimizning ramzlaridan bo‘lgan bayroq, tug‘ro so‘zlari ham avval janglarda ishlatilgan atamalardir. “Batraq – uchiga maxsus ipaklik osilgan yog‘ochki, askarning jangda o‘zini ko‘rsatgani belgisi” bo‘lsa, “tug‘ru – qilich, pichoq, xanjar dastalariga taqiladigan popuk”dir.

Xalqimizda ko‘hna zamonlardan buyon jamoatchilik ruhi ustuvor. Hozir ham ko‘plab qishloqlarda aholi yig‘ilib maslahatlashadigan joylar bor, odatda ko‘rinarli tepalik joylarda bo‘lgani uchun bu joylar “Maslahattepa” deb ataladi. Qadimda odamlarning xuddi shunday yig‘ilish joyi “tirnak” deb atalgan.

Bugun chovgon o‘yinini eshitmaganlar ham, eshitgan bo‘lsa-da, qanday o‘ynalishini bilmaydiganlar ko‘p. Eski zamonlarda bu o‘yin ko‘p o‘ynalganidan “tasal” degan so‘z xabar beradi: “Tasal – chovgan o‘yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq. Bu talas so‘zining ag‘darilganidir. Arabchada o‘tloq ma’nosida deyilishi ham shundaydir”. Mashhur adib Chingiz Aytmatov tug‘ilgan Qirg‘izistonning Talas vodiysi nomi esingizga tushdimi?

Hozir bu odat bormi-yo‘qmi, bilmayman, bolaligimizda qo‘shnilarnikiga yangi kelin kelar bo‘lsa, kelin mingan ulovning oldiga uzun arqon tortib chiqardik, nomi “baqan tutish” edi. Qachonki, kelinning yangalari bizga shirinlikmi, suvluq – ro‘molchami bersa, baqanni yo‘ldan olardik. Devonga ko‘ra, “baqan” – doira, halqa ekan. “Yerdan kavlab

YANGI NASHR

“BOBURNOMA” QIRG‘IZ TILIDA

2023-yili buyuk shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bag‘ishlangan anjumanda o‘zbek olimlari tomonidan “Boburnoma” asarini qirg‘iz tiliga tarjima qilish taklifi bildirildi. So‘nggi yillarda “Boburnoma” qoraqalpoq, qozoq va italyan tillariga tarjima qilingani ham mening bu bebaho asarni qirg‘izzabon o‘quvchilarga yetkazish niyatimni mustahkamladi.



Shundan so‘ng, o‘tgan ikki yil davomida “Boburnoma”ning Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev nashrga tayyorlagan (1960, 1989), Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo‘jayeva hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilgan (2008, 2019) variantlarini chuqur o‘rganib, qiyoslab tarjima qilishga erishdim.

“Boburnoma” nafaqat O‘zbekiston, ayni paytda, butun Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston, Pokiston mamlakatlari uchun g‘oyat muhim tarixiy asardir. Uning o‘tgan davr mobaynida fors, ingliz, fransuz, nemis tillariga qayta-qayta, shuningdek, urdu, turk, uyg‘ur, yapon, golland, rus, arab, xitoy, ispan, ozarbayjon tillariga tarjima qilingani ham bu betakror adabiy obidaning jahonshumul shuhratidan dalolat.

Bobur Mirzoning insonparvarlik g‘oyalariga yo‘g‘rilgan samimiy va rost satrlari qirg‘iz kitobxonlariga manzur bo‘lishiga shubha yo‘q. Ushbu tarjima Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar ilmiy merosini qardosh xalqlar o‘rtasida yanada keng targ‘ibtashviq qilishga xizmat qiladi, degan umiddaman.

Xosiyat BEKMIRZAYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

UYG‘OQ XOTIRA

JUR’AT



Iste’dodli olim, izzatli adabiyotshunos Izzat Sultonning “Navoiyning qalb daftari” kitobi o‘z vaqtida juda katta izlanishlar va olimning tinimsiz mashaqqatli mehnati evaziga maydonga kelgan. Asar bugungi kunda qayta nashr etilib, o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Kitobda bir qator o‘ziga xosliklar bor. Unda olim buyuk shoir diliga kotiblik qiladi, Navoiyni so‘zlatadi – o‘zi xususida shoirning o‘zi so‘zlaydi. Kitob uslubiy jihatdan “buyuk insonning o‘zi haqida aytgan iqrornomasi va shahodatnomasi” yo‘lida yozilgan.

Olim me’yorni saqlagan holda, “yozuvchining tarjimayi holi – uning asarlaridir” degan tamoyilga amal qilib, Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishda, avvalo, shoir asarlaridagi ma’lumotlarga murojaat qiladi. Shuningdek, zamondoshlari yozib qoldirgan ilmiy, adabiy va tarixiy asarlardan jamlangan biografik ma’lumotlar beriladi. Kitob kompozitsion jihatdan Alisher Navoiyning “Chor devon”i strukturasiga tayanadi. Bunda sahifalar inson umrining fasllari bilan chegaralab olinadi.

Yaqin tarixda Alisher Navoiy xususida bor haqiqatni aytish uchun izn berilmas, xususan, Amir Temur va Temuriylar davrida badiiy adabiyot yuksalganini ochiqcha ta’kidlash mumkin emas edi. Olim bunday o‘rinlarda ham bor mas’uliyatni Alisher Navoiy zimmasiga yuklaydi va ora-orada “Navoiy fikricha”, “Navoiy tushunchasicha”, “Alisher

saltanati

olinadigan metallardan yasalgan halqaga altun baqan – oltin halqa deyiladi”.

Jangda saflarni tuzatuvchi, dam olish vaqtida askar tartib-intizomini saqlovchi boshliq – “chavush”, dushmanning oldingi ayg‘oqchilarini qo‘lga olish uchun kechasi kezuvchi ayg‘oqchi – “tutg‘aq”, amirlarning mol boqadigan ko‘katzor maydoni, qurshalgan har bir narsaga ham – “qorig‘”, eshiklarni aylanib yuruvchi gadoy – “qarachi” deyilgan. “Chalma” so‘zi bugun ham bizga begona emas *(hatto uning arxaik so‘zga aylanib ketmagani achinarli),* devonga ko‘ra ham, bugun ham bu so‘zning ma’nosi “qo‘y, tuya va boshqa mollar qiyidan kesib olib, qishda yoqish uchun quritiladigan tezak”dir.

Onamning o‘zi tug‘ilgan qishloqqa borar bo‘lsa, “to‘rkunimga borib kelay”, degan gapi bor. Men buni voyaga yetguncha davrda yashagan “to‘rt kunlik yurt” ma’nosida tushunardim. Devonda bu so‘z “turkun” deb berilgan va “qavm, qabila yig‘ini joyi, ota-onaning uyi” degan izoh ham keltirilgan ekan. Yana misol ham aytilibdiki: “Qiz turkuna keldi – qiz otasining uyiga keldi”.

Ajdodlarimiz ovdami, jangdami, albatta, sopqondan unumli foydalangan. Ana endi, sopqonga solib otish uchun “loydan g‘o‘lak qilinib quritilgan, ho‘l holida ham otish mumkin bo‘lgan, yong‘oqdan kichik yumaloq kesak” – “kuvluk”dir. Ichiga uzum yoki mayiz solib tayyorlanadigan sutli ovqatni bilasizmi? O‘tmishda bunday taom bo‘lgan va u “bulduni” atalgan. Yana, “zontik” ham bizga begona bo‘lmagan, bobomomolarimizning ham yomg‘irdan to‘sadigan, kigiz (devonda “kiziz”) dan tayyorlangan yopinchiqlari bo‘lgan, u “kaduk” deyilgan. Asarda Barsag‘on shahri xalqi “bug‘doy” so‘zini “budg‘oy” tarzida talaffuz qilishlari, birovning u shahar xalqi ekanini shu so‘z bilan sinab bilish odatlari bayon etilgan.

O‘LMAS MAQOLLAR – BOQIY HIKMATLAR

Asli, so‘zlar izohiga mo‘ljallangan devonda ko‘hna maqol va she’rlardan namunalar keltirilgani kitobning qadrini benihoya oshiradi. Bu maqol va she’rlarda o‘sha davr nafasi ufurib turadi. “Maqolda shunday kelgan”, deydi Koshg‘ariy bobo. Mana bu maqollarga e’tibor bering-a, qanday boqiy hikmatlar jo bo‘lgan ularda!

“So‘zning qisqasi uzunidan yaxshiroq”, “Qadam izi birov yurganini bildiradi”, “Tulki o‘z uyasiga qarab irillasa, qo‘tir bo‘ladi”, “Og‘iz yesa, ko‘z uyalar”, “Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq”, “Tirishqoqning labi yog‘liq”, “Idish og‘zi kichik bo‘lsa ham tiqini katta”, “Tog‘ arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bekilmaydi”, “Suv ichirmasga sut ber”, “Qishning ziyofati olovdir”, “Toshni chaynashga qodir bo‘lmagan kishi uni o‘pishi kerak”, “Ishtoni butun qanday xohlasa, shunday o‘tiradi”, “Kulni puflaguncha, cho‘g‘ni puflagan yaxshi”, “Baliq suvda, ko‘zi tashqarida”, “Xitoy xoqonining ipak gazmoli ko‘p, lekin o‘lchamay kesilmaydi”, “Qirg‘ovul oviga chiqsang, uydagi tovuqni unutma”, “Xalqda fitna ko‘paysa, aql ozayadi va to‘g‘ri yo‘lni topolmay qoladi”, “Shirin so‘z bilan odam shohlar kosasidan suv ichadi”.

Bu maqollar – bugungi tilga evrilganlari. Endi, bugungi tilimizga yaqin bo‘lgan maqollarni devon tilida o‘qib, so‘zning mazasini his qilib ko‘ring: “Taz keligi bo‘rkchiga” (Kalning borar joyi do‘ppifurush do‘konidir), “Ermaguga eshik art bolur” (Yalqovga eshik ostonasi ham dovondek ko‘rinadi), “Ot tesa ag‘iz kuymas” (O‘t degan bilan og‘iz kuymas), “Avchi necha al (hiyla, firib, aldamoq) bilsa, azig‘ ancha yol bilir” (Ovchi qancha ov hiylalarini bilsa, ayiq ham shuncha qochish yo‘llarini biladi)... “Sart azig‘i arig‘ bolsa yolda yer” maqoliga e’tibor qilaylik. Ya’ni, savdogarning oshi halol bo‘lsa, ko‘chada yeydi. “Sart” so‘zi haqida bahslar ham, millatga bog‘langan holatlar ham ko‘p, devonga ko‘ra, u “savdogar”dir.

Maqollarning mag‘zini chaqishda davom etamiz: “Uluq yag‘iri og‘ulqa qalir” (Ot kuragidagi yag‘ir bolalariga meros bo‘lib qoladi. Uluq – otning orqasi), “Ay tolun bolsa, eligin imlamas” (Oy to‘lin bo‘lsa, qo‘l bilan ko‘rsatilmaydi, chunki u har kimga aniq ko‘rinadi), “Emgak ekinda qalmas” (Mehnat bo‘sh ketmaydi), “Qul – yag‘i, it – bo‘ri” (Qul – dushman, fursat topsa, qochish payida bo‘ladi, it ham xonadon uchun bo‘ridir), “Qirq yilqa tegin bay chig‘ay tuzlanur” (Qirq yilgacha boy bilan kambag‘al tenglashadi), “Erdam bashi til” (Adabning boshi tildir. Ha, hamma zamonda shunday!), “Qara buliti yel achar, urunch bila el achar” (Qora bulutni shamol ochadi, hukumat eshigini pora ochadi. Afsuski, bu hikmat ham hamma zamonlarga xosdir).

Navbatdagi maqollar: “Bar – baqir, yoq – altun” (Bor narsa – mis, yo‘q – oltin (qadrli), “Qonaq bashi sazraki yig” (Tariq boshog‘ining siyragi yaxshi. Chunki doni kam bo‘lsa, don to‘la va yirik bo‘ladi. “Qonaq” – “tariq”), “Necha yimik bichak ersa oz sabin yanumas” (Pichoq qancha o‘tkir bo‘lsa ham, o‘z sopini yo‘nmaydi, kesmaydi), “Alp charikda, bilga tirikda” (Botir jangda, dono majlisda sinaladi), “Ot tutunsiz bolmas, yigit yazuqsiz bolmas” (O‘t tutunsiz bo‘lmas, yigit gunohsiz bo‘lmas), “Sabanda sandirish bolsa, ortugunda irtash bolmas” (Yer haydash vaqtida puxtalik bo‘lsa, xirmonda anglashilmovchilik bo‘lmaydi), “Qadash temish qoymaduq, qazin temish qoymish” (Qarindoshlarga og‘a-ini keldi, deyilsa, unga e’tibor berilmadi, qayin ona (ota) keldi, deyilgan edi, darrov unga qaradi. “Qazin” – qayin ma’nosida), “Katan kordi keragu yuzti” (Mehnatni ko‘rib, chodirini orqaladi. “Katan” – mehnat, qiyinchilik), “Xan ishi bolsa, qatun ishi qalir” (Xoqonning ishi bo‘lsa, xotin ishi qoldirilar. “Qatun” – Alp Erto‘nga qizlaridan tarqaganlarning nomi, maqomi), “Qarg‘a qarisin kim bilir, kishi alasin kim tapar” (Qarg‘aning qarisini kim biladi, kishining olasini kim topadi), “Qut balgusi bilig” (Baxt belgisi ilm va aqldir), “Tilin terguga tegir” (Shirin, yoqimli so‘z bilan kishi dasturxonga yetishadi. “Tergu” – dasturxon).

Yoshligidan tanish bo‘lgan yigit martaba topib ko‘tarilsa ham, yoshligida ko‘rib yurgan urug‘-aymoqlari orasida kichik ko‘rinishiga ishlatiladigan zo‘r maqol bor: “Evdagi buzag‘-u okuz bolmas” (Uyda o‘sgan buzoq hech vaqt ho‘kiz bo‘lmaydi). Yo‘l boshlovchilar haqida ikki maqol: “Qalin qulan chifg‘asiz bolmas” (Mollar podasi yo‘lboshchisiz bo‘lmas. “Chufg‘a” – yo‘l boshlovchi, rahbar) va yana bir variant: “Qalin qaz qulavuzsiz bolmas” (G‘oz to‘dalari yo‘lboshchisiz bo‘lmas. “Qulabuz” – yo‘lboshchi). Keyingi maqollar: “Yer basruqi tag‘, buzun basruqi beg” (Yer suyanchig‘i – tog‘, el suyanchig‘i – bek), “At taguzlugi ay bolmas” (Otning peshonasidagi oqligi oyning o‘rnini bosmaydi), “Sundilach ishi ermas ortugun tepmak” (Xirmon yanchmoq sa’vaning ishi emas), “Buldachi buzag‘-u okuz ara balguluk” (Ho‘kiz bo‘ladi deb gumon qilingan buzoq ho‘kizlar orasida yoshligidan ma’lum bo‘ladi).

Faqat ayrimlari hozir ham qo‘llanadigan, aksariyati o‘tmish qatlarida qolib ketayotgan qanday ajoyib maqollar bular!

“SHE’RDA SHUNDAY KELGAN”

Koshg‘ariy hazratlari biror so‘zga she’riy misol keltirar ekan, shunday eskartma beradi. Turkiy xalqlarning eng ko‘hna adabiyotidan bizga namunalar yetkazgani uchun ham muallifdan yana bir bor minnatdor bo‘lishimiz kerak.

Kitobda berilgan she’rlarning barchasi milliy adabiyotimizning ota yo‘li – barmoq vaznida bitilgan. Jumlalar bir qarashda sodda, ammo chuqurroq razm solsangiz, har birining zamirida katta mazmun mujassam ekanini anglab yetasiz. Mana bu satrlarga e’tibor bering:

Bardi eran qonuq qorub qutqa saqar,
Qaldi yavuz uyuq korub evni yiqar.

Ya’ni, “mehmonni davlat va baraka sanaydiganlar o‘lib ketdi, sahrolarda ko‘ringan qoralarni va manzillarni belgilash uchun qo‘yilgan toshlarni ko‘rib, odam deb o‘ylab, u kelib qo‘nib qolmasin, deb chodirini buzuvchilargina qoldi”. Qarang, mehmondo‘stlik azal-azaldan turkiy xalqlarimizning qonida bo‘lgan-da. Bu xislatini yo‘qotganlar o‘sha vaqtlarda ham qattiq malomatga qolgan.

Endi mana bu hikmatli so‘zlarni qarang:

Atsa ajun og‘rab oq,
Tag‘lar bashi kertilur.

Ya’ni, “agar zamon o‘q otsa, tog‘ boshlari ham kertilib ketadi”.

She’rlarning yana bir alohida ahamiyatli jihati – ularda qo‘llangan qofiyalarning nihoyatda to‘qligidir. Mana, masalan:

Tomlig‘ kalib qapsadi,
Qutlug‘ yayig‘ tapsadi,
Qarlab ajun yapsadi,
Et yin ushub armshur.

“Sovuq kelib qopladi. Qutlug‘ yozni haydadi. Qor dunyoni qoplab oldi. Kishining badani uvushib qaltiraydi”.

Aksariyati “a-a-a-b” tarzida, faqat ayrim hollardagina “a-b-a-b” shaklida keladigan har bir she’r qofiyalari e’tiborni tortmay qolmaydi.

QADIMGI ISMLAR

Devonning birinchi jildida erkaklar oti sifatida Buluch, Quluch, Qilichxon, Tutuq, Qumuq, Qaban, Qotan, Baklan, Chug‘lan, Budrach, Qatmish, Qutlug‘, Badruq, Bulg‘aq, Qulbaq, Tutush, Utar, Toqish, Tekish, Qalalduruq singari ismlar keltiriladi. Aksariyati “erlar ismi” degan izoh bilan cheklangan. Ba’zi so‘zlar bilan bog‘liq tarzda kelgan ismlarda ularning ma’nosi aytib o‘tiladi. Masalan: “Sag‘un – qarluq kattalarining laqabi. Turk tabiblarga ata sag‘un deyiladi”; “Bug‘ra – erkak tuya. Bug‘raxon ismi ham shundan olingandir”; “Chag‘ri – lochin. Chag‘ribek deyilgan odam ismi ham shundan”; “Qavshut – el va yurt tinchligi uchun ikki shoh orasidagi kelishuv, kelishish. Odamlarga Qavshut deb ism qo‘yishda ham shu ma’no bor”, “Baktur – erkaklar ismi. Asli, u Bagtur – doim o‘rningda tur, ko‘p yasha demakdir”; “Tog‘ril – yirtqich qushlardan biri. Bu mingta g‘ozni o‘ldirib, bittasinigina yeydi. Bu so‘z erkaklar ismi o‘rnida ham qo‘llanadi” va hokazo. Birinchi jildda ehtimol yagona keltirilgan ayollar ismi Kumushdir, u kumush so‘zining izohida kelgan. Yana bir o‘rinda “meros”, “esdalik” ma’nolaridagi Xumaru so‘z erkak va ayollar ismi sifatida ham ishlatilishi bayon etiladi.



BIZGA QADRDON NOMLAR

Devon nafaqat til tarixidan so‘zlaydi, ayni paytda o‘sha davr jug‘rofiyasi haqida tasavvur uyg‘otuvchi nodir ma’lumotlarni ham taqdim etadi. Bugungi kunda biz uchun qadrdon bo‘lgan joylar ta’rifi aks etgan sahifalar hech birimizni befarq qoldirmaydi, albatta. Masalan, “Toshkent Movarounnahrning eng qadimiy shaharlaridan biridir”, deya xabar beradi Koshg‘ariy. Bugungi poytaxtimiz o‘sha davrlarda ham qadimiy deb e’tirof etilgan ekan.

Yurtimiz gavhari – Farg‘ona haqidagi ta’rifni hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi: “Farg‘ona mevaga boy, tog‘lari ko‘p o‘lkadir. Uning cho‘ziq tog‘larida olma, uzum, pista, bodom va boshqa mevalar, turli xil xushbo‘y o‘simliklar, gullar, rayhonlar ko‘pdir. Xushhavo, sermevalikda tengi yo‘qdir. U juda keng, serqishloqdir. Bunday serqishloq o‘lka Movarounnahrda yo‘qdir. Odam ko‘pligidan, ekin va chorvaning mo‘lligidan qishloqlar kengayib, kattalashib ketgandir. Qishloqlarga borish uchun bir qo‘nib borish shartdir. U yerda yetishgan olimlar ko‘pdir. So‘nggi vaqtlarda Damashqda turib qolgan zo‘r olim, dongdor ustod Hojib binni Molik binni Erkin farg‘onalik olimlarning biridir (Mu’jamu-l-buldon. 6-jild. B.364)”. Afsuski, Koshg‘ariy e’tirof etayotgan farg‘onalik olim Hojib binni Molik binni Erkinni – mana shunday “zo‘r olim, dongdor ustod”ni bugun bilmaymiz, balki kam odam bilar, qaydam?

Albatta, qadim tariximizdan so‘ylovchi bu nodir asarni Samarqand ta’rifisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Devon ilovasida shunday deyiladi: “Samarqand shahri eng eski va eng obod shahar sifatida juda mashhurdir. U eng qadimgi arab manbalarida, fors tarixlarida keng izohlab berilgan. Batlimus va boshqa jug‘rofiya olimlari bu shaharning jug‘rofiy mavqeyini va uning xushhavoligi, ko‘rkam manzaralarga boyligi, sermevalik xususiyatlarini mukammal izohlagan edilar”. Mahmud Koshg‘ariy ma’lumotiga ko‘ra, “Samarqand eng eski shahardir. VII asrlardayoq bu shaharda xalq gavjum edi. Har xil kasb ahllari bor edi. X asrlarda sug‘doqlar Balasog‘unga shu yerdan ko‘chib bordilar. Uning asl nomi Samizkand – Katta shahar demakdir”. Mahmud Koshg‘ariyning alohida uqtirishicha, “bu shaharning turkiy xalqlar tomonidan bino qilinganiga, bu haqdagi boshqa xil qarashlar xato ekaniga shu nomning o‘zi dalildir”.

“Kand – o‘g‘uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko‘pchilik turklar nazdida shahardir. Shuning uchun Farg‘onani O‘zkand – “o‘z shahrimiz” deydilar. Samarqandni kattaligi uchun Samizkand – “semiz shahar” deydilar. Buni forslar Samarqand tarzida qo‘llaydilar”, deya eslatadi buyuk Koshg‘ariy.

“O‘G‘IL, MENDAN O‘GIT OL, FAZILAT TILA”

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari “zamonning eng sog‘lari kasal va eng burrolari soqov bo‘lgan” har vaqtda, jumladan, bugungi global zamonda ham barchamiz uchun juda dolzarbdir. Ayniqsa, hozir Yaratgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlik “quyoshini turklar burjiga ko‘targan” bir vaqtda, turkiy xalqlar o‘zining qadim ildizlarini eslab, Koshg‘ariy ta’biricha, qadashlik aloqalarini tobora mustahkamlab borar ekan, bu bebaho asarga hamisha yuksak ehtiyoj sezamiz. Bir vaqtlar Koshg‘ariy: “Ot turkning qanotidir”, deb yozgan bo‘lsa, bugun turkiylarning qanoti – so‘zdir.

Shu bois, Koshg‘ariy bobo har qachonki: “O‘g‘il, mendan o‘git ol, fazilat tila”, deya chorlar ekan, tezda “falak qutb yulduzi atrofida aylanish qoidasi kabi” bu tabarruk kitobni qo‘lga olib o‘qish va uqish – “har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir”.

Ikrom ISKANDAR

SABOG‘I

Navoiyning tarixiy nazari... falon voqelikka tushdi” kabi ta’birlarni qo‘llaydi.

Masalan, imkon topib, Xoja Abduqodir bilan Amir Temur o‘rtasidagi ibratli bir hodisani keltiradi: “Xojaning kamolotidin biri Qur’on hifzi va qiroat ilmi erdi, filhol biyik un birla Qur’on o‘qimoq bunyod qildikim, ul hazratning (Amir Temurning) g‘azabi lutfg‘a mubaddal bo‘lib, fazl va kamol ahli sori” qarab, “Qalandar qo‘rqqanidan mus’haf (Qur’on) ga chang soldi”, mazmunli misrani o‘qiydi. So‘ngra shoirga yuksak ehtirom ko‘rsatadi. Bunday misollarni davr tarozisi, kitob tab’i va tabiati ko‘targancha, juda ehtiyot bo‘lib yozadi olim.

Bir dunyo ma’lumotlar, jumladan, ramziy ma’nodagi “Qaqnus va qaqnusbacha” – ustoz-shogirdlar, shoirning “Cherik chekmay Xitodin to Xuroson”ni olgani, shunday shon-shuhrati sarhadlari, o‘nlab turkigo‘ylar ahvollari, shoirning necha yoshida “she’rning parishon savdosig‘a giriftor bo‘lgani” va “nazmning parokanda vosvosiga mashg‘ul” bo‘lgani qayta esga olinadi kitobda.

Bir sahifada Alisher Navoiyning aruzni sabzavorlik Darvesh Mansurdan o‘rgangani aytiladi. Shoir yigitlik chog‘ida “she’rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash’ori va rangin abyotidin ellik mingdan ortuq yod tutubmen”, degan e’tirofi quvvayi hofizasining cho‘ngligidan darak beradi. Ayni chog‘da, u zotga zamondosh sohibi devon shoir Hiloliyning o‘ttiz-qirq ming bayt yod bilganidan hayratga tushamiz.

Albatta, bu tarixiy dalil shoirlik yo‘liga kirgan bugungi ijodkorlar, ayniqsa, yoshlar uchun naqadar ibratga loyiq ekani xayolga keladi.

Hazrat Alisher Navoiy o‘z dahosi, iqtidori, Xudo bergan talanti ko‘lamini o‘zi juda teran anglagan, yaxshi bilgan, badiiy tafakkurining qamrovini sezib turgan. Aks holda, Firdavsiyning “Shohnoma”ni yozish uchun o‘ttiz yil sarf qildim”, degan so‘zlariga munosabat bildirib, “Xamsa” uchun menga o‘ttiz oy kifoya”, degan gapini aytmagan bo‘lardi. Yana bir masnaviysida: “O‘tuz yilki oni Nizomiy demish, Qoshimda erur ikki-uch yil ish”, deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, 1482–1485-yillar orasida shoh asar – “Xamsa” yozildi.

Navoiyning ijod olami bilan birga, ijtimoiy faoliyati, qurdirgan inshootlari, ularning son-sanog‘i, mol-dunyosining miqdori Izzat Sulton nazaridan chetda qolmaydi: “Uning vaqfining miqdori besh yuz tumandan ortar edi” (1970-yillarda bu miqdor 5 million rubl bo‘lgan ekan). Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridan dalil: “Alisherning bir kunlik daromadi (“hosili amloki”) o‘n sakkiz ming shohruhiy dinor edi va u bu daromadning hammasini xayrli ishlarga sarf etar edi”.

Izzat Sulton juda ko‘p tarixiy dalillarga, shoirning o‘z iqrorlariga, ijod psixologiyasiga, muhim nazariy qarashlarga, hatto ayrim bahsli masalalarga ham e’tibor qaratadi. O‘rni kelganda, shoh va shoir Husayn Boyqaroning qo‘chqor, xo‘roz urishtirishlari, kaptarbozliklari-yu ichkilikka berilishlarigacha eslab o‘tadi. Xalq orasida yurgan rivoyatlarni mavzu doirasiga singdiradi.

Bir o‘rinda Navoiyning topqirligi, donoligini shunday bayon etadi:

“Chorvador Navoiy bozorga mol olib kiradi va bozorda mollarini nasiyaga sotmoqchi ekanini e’lon qiladi”. Xaridorlarning: “Pulini qachon to‘laymiz?” degan savoliga: “Qarzingizni podshoh Husayn Boyqaro o‘lgan kuni to‘laysizlar”, deydi. Bu gapni shotirlar podshohga yetkazishadi.

Navoiyni zudlik bilan podshoh huzuriga olib keladilar. Savol beriladi: “Nega bu gapni aytgansiz?” Navoiy javob beradi: “Podshohim! Mendan nasiyaga mol olgan har bir kishi endi har kuni besh mahal namozi chog‘ida: “Ey Xudo, podshoh Husayn Boyqaroni o‘ldirma, men qarzimni to‘lamay”, deb duo qiladi. Zero, shunday duolar ijobat topib, Xudo sizning umringizga umr qo‘shsa. Molimni nasiyaga sotishdan niyatim shu”. Podshoh qahr minbaridan yerga tushib, muloyim tortadi – Navoiyning lutfidan mamnun bo‘ladi.

Kitobni o‘qish davomida bir fikr xayolga keldi. Agar otaxon adabiyotshunos bu asarini bugungi ma’naviy muhit obhavosidan emin-erkin nafas olib yozganida, Alisher Navoiy “qalb daftari”ning diniy-e’tiqodiy sahifalarini ham, sirli-ilohiy nuqtalarini ham kengroq va chuqurroq ochib bergan bo‘lar edi. Ehtimol, yangi davrda olim: “O‘zlarining dunyoviy mazmuni bilan Navoiyning g‘azallari diniy e’tiqodlarga zid bo‘lgan fikr va tuyg‘ularning adabiyotda chuqur o‘rin olishiga xizmat etadilar” (186-bet) kabi gaplarni aslo yozmagan bo‘lar edi. Bunday fikrlar tarixiy shart-sharoit va tarixiylik tamoyilining o‘ziga xos mezonlari bilan izohlanadi, albatta.

Izzat Sulton oqil va donishmand olim edi. Uning mazkur asari yashayotgan va yashaydigan, bugungacha o‘qilgan va kelajakda ham o‘qiladigan kitoblar sirasiga kiradi.

Ildirgi: 1995-yili 7-iyunda nomzodlik dissertatsiyamni himoya qilganimda, Izzat Sulton Kengash raisi edi. Himoya



ko‘ngildagidek o‘tdi. Rais Vadud Mahmudning tanqidchilik faoliyati xususida yaxshi, iliq gaplar aytdi. Rasmiy hujjatlarni hozirladim. Domlaning imzosi zarur edi. Bir joyga majlisga ketgan ekan. Izlab bordim. Hali yig‘ilish boshlanmagan, ammo domla Prezidumda majlis ahliga yuzlanib o‘tirgan ekan. Ulkan zalning bir chetidagi bo‘sh o‘rindiqqa borib joylashdim. Oldiga borishga tortindim. Kutib o‘tiraverdim. Majlis boshlandi. Undagi gaplar men uchun uncha qiziq emas, imzo esa muhim. Oradan bir soatlar o‘tib, tanaffus bo‘ldi. Domlani xoli topib, yoniga borib salom berdim, keyin hujjatlarga ishora qildim. Imzo qo‘ya turib, Izzat Sulton mening allaqachon kelib, ancha kutib qolganimni nazarda tutib: “Bunday mahalda dadilroq bo‘lmoq kerak. Vaqtni qadrlash lozim”, deb nasihat qildi. Bu inson juda zukko va sezgir edi. Izzat Sulton domladan shunda jur’at sabog‘ini olgandim. Buni imzotalab yoshlarga nisbatan hali-hanuz qo‘llayman.

Bahodir KARIMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

QUYOSH SANDONI

Boshlanishi 1-sahifada.

– Domla, Siz rahbarlik qilayotgan muassasa haqida gap ketganda ko‘z oldimizda ulkan inshoot – Katta Quyosh Sandoni gavdalanadi. Ushbu obyekt bugungi kunda mahalliy va xorijiy sayyohlarning hayrat va havasiga sabab bo‘lmoqda. Biroq uning vazifasi faqat ilmiy turizmni rivojlantirish emas, albatta. Sandonning ilmiy ishlab chiqarishdagi ahamiyati bugun qay darajada?

– Umuman olganda, institutimiz boshqa institutlar va ilmiy dargohlardan farq qiladi, noyobligi bor. Biz tadqiqotlarimizni asosan quyosh nurlanishi asosida olib boramiz. Siz aytgan quyosh sandoni dunyoda ikkita – Fransiya va O‘zbekistonda mavjud. Sharqiy Pireneyda joylashgani 1970-yilda ochilgan bo‘lsa, Parkent tumanidagi inshoot 1981–1986-yillarda qurilib, 1987-yildan faoliyatini boshlagan. Institutimiz esa 1993-yilda mujassamlangan quyosh nurlarining moddalar bilan ta’sirlanishini o‘rganish va mahalliy xomashyo asosida tashqi muhit ta’sirlari sharoitida qo‘llashga mo‘ljallangan yangi avlod materiallarini ishlab chiqishni jadallashtirish maqsadida tashkil etilgan.

Institutda noyob ilmiy obyekt – issiqlik quvvati 1 MW bo‘lgan Katta Quyosh Sandoni (KQS) mavjud. KQS murakkab optik-mexanik va avtomatik boshqaruv tizimiga ega kompleks bo‘lib, geliostatlar maydoni va paraboloidli konsentratordan iborat. Sandon orqali quyosh nurlari bir nuqtaga jamlanib, yuqori harorat – 3000 daraja issiqlik hosil qilinadi. Tabiiy gaz yonganda – 1600-1700, vodorod yonganda 2800 daraja issiqlik beradi. Ma’lumki, tabiiy gaz manbalari cheklangan. Vodorod – ekologik toza yonilg‘i. Biroq vodorodni boshqa moddadan ajratib olish uchun 2000 daraja harorat kerak. Bu – bir birlik vodorod olish uchun uch-to‘rt birlik energiya sarflash kerak degani. Tannarxi juda yuqori. Mana shu masalani quyosh energiyasi orqali hal qilmoqchimiz. Masalan, suvda ikki atom vodorodniki, bitta atom kislorodniki. Lekin bir-biridan ajratish juda qiyin. Biz quyosh nuridan foydalanib, suvni parchalash texnologiyasini ishlab chiqyapmiz. Buning uchun maxsus reaktor yaratilgan.

“O‘zi suv global muammoga aylanib borayotgan bo‘lsa, yana nega suvni parchalamoqchisizlar”, degan e’tirozlar bo‘lishi mumkin. Qizig‘i shundaki, olingan vodorodni qaytadan kislorodga qo‘shsak, ham katta energiya, ham suv hosil bo‘ladi. Ya’ni, suv oxirida yana tabiatga qaytariladi. Olingan vodorodni saqlash, tashish va foydalanish bo‘yicha muvaffaqiyatli tadqiqotlar davom etmoqda. Kelajakda udan nafaqat ishlab chiqarish, balki kundalik hayotimizda ham foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. Buning uchun uni parchalashning eng arzon yo‘li – kichik quyosh sandonlari loyihasi ustida ishlayapmiz.

– Uzr, domla, shu o‘rinda “Vodorod texnologiyalarini olish va saqlash borasida materialshunoslikning o‘rni qayerda?” degan savol paydo bo‘ladi.

– Ha, balli, o‘rinli savol. Gap shundaki, quyosh sandonlari ham abadiy emas. Ularning ham o‘z muddati bor. Hozir elektrolizer degan texnologiya bor. U suvni parchalaydi, faqat suv ishqorli bo‘ladi. Tabiiyki, jarayonda ishlatiladigan oddiy temir korroziyaga uchraydi, chirishni boshlaydi. Yana elektrodlar masalasi bor, ularni yasashda platina yoki oltindan foydalaniladi. Juda qimmat. Mana, nega vodorod o‘ta qimmat hisoblanadi.

Oldimizga qo‘yilgan vazifalardan biri – o‘sha materialning tannarxini tushirishdan iborat, toki iqtisodiy samara bersin, ishlasin. Dunyoda “MXenes” deb ataladigan birikma paydo bo‘ldi. U chirimaydi, issiqlik va infraqizil nurlarni o‘tkazmaydi. Mana shu birikmani o‘rganish va o‘zimizda tayyorlash bo‘yicha xitoylik hamkorlarimiz bilan ishlayapmiz. Bu ham o‘ta qimmat material. Chunki “Maks faza” deb ataladigan xomashyoni ishlab chiqarish uchun 1700 daraja harorat kerak. Bizning qo‘limizda esa 2000-2500 darajali harorat turibdi. Hozir Xitoy bilan birgalikda birinchi materialni oldik. Sinov ishlari davom etmoqda. Biz tajriba orqali yuqori texnologik material yaratishimiz mumkinligini ko‘rsatdik.



Agar shu materialni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ysak, ham vodorod olish texnologiyasi arzonga tushadi, ham jahon bozoriga qimmatli tovar eksport qilamiz.

– Shu kunlarda Toshkent shahrining ekologik vaziyatini yaxshilash bo‘yicha Maxsus komissiya ish olib bormoqda. Bu borada Prezident farmoni imzolandi. Olim sifatida mavjud xavfni bartaraf etish va kelgusida takrorlanmasligi uchun nimalar qilish kerak, deb hisoblaysiz?

– Har bir soha bo‘yicha o‘z mutaxassisi gapirgani ma’qul. Lekin bu borada o‘z yo‘nalishimiz bo‘yicha ayrim ishlarni aytib o‘tmoqchiman. Ko‘plab manbalardan xabar kelyaptiki, havo ifloslanishining asosiy sabablaridan biri – issiqxonalar. Ko‘mir yoki rezina mahsulotlari, plastiklar yoqilishi hisobiga havo zaharlana boshladi. Bir tomondan, buni to‘xtatish kerak. Boshqa tomondan, hamma issiqxonalarni yopib qo‘yadigan bo‘lsak, ertaga narx-navo oshib ketadi. Unda nima qilamiz?

Shundan kelib chiqqan holda, oxirgi besh yildan beri biz dala sinovlarini o‘tkazyapmiz. Maqsadga muvofiq maxsus nanozarralar ishlab chiqildi. Bu nanozarralar issiqxona plyonkasiga qo‘shilganda, sodda qilib aytganda, quyoshdan kelayotgan nurlarni ajratib o‘tkazadi. Quyosh nurini hammamiz bilamiz. Milliardlab foton keladi, ya’ni milliardlab to‘lqin uzunligi. Har bitta fotonning o‘z energiyasi bor. Agarda biz o‘sha eng kerakli qismini ajratib oladigan bo‘lsak, bizda zarur harorat paydo bo‘ladi. Masalan, 17-22 daraja infraqizil nurlanishda shunaqangi fotonlar keladi. Tasavvur qiling, yuzlab fotonlar kelyapti, hammasini cheklayapmizda, 17-22 darajali fotonlarni ichkariga o‘tkazyapmiz. Demak, issiqxonaning ichi doim shu 22 darajada saqlanadi. Hech qanday sun’iy isitishga hojat qolmaydi, sun’iy sovutishga ham.

O‘zbekiston sharoitidan keyin Shanxay qishloq xo‘jalik akademiyasi bilan Shanxayda sinovlar o‘tkazib ko‘rdik. Tashqi harorat 43 daraja issiq bo‘lganda, issiqxonadagi harorat 35-36 darajani tashkil qildi. Biz konditsioner qo‘yganimiz yo‘q. Bunaqangi harorat o‘simliklar uchun juda komfort. Shunda yaxshiroq rivojlanadi.

– Quyoshli fasllarda bu jarayon tushunarli. Endi qishda qanaqa bo‘ladi?

– O‘zbekistonda o‘tkazgan tajribalarimiz shuni ko‘rsatdiki, tashqi harorat -5 darajagacha bo‘lganda, plyonkaning ichidagi harorat +6 darajada bo‘ladi. Tashqi energiyasiz, suvqog‘oz – plyonkaning o‘zi ishtirokida. Quyoshdan kelayotgan fotonlar kunduzi o‘tgandan keyin tuproqqa singiydi. Ya’ni, ularni tuprog‘imiz yutadi. Yutadi-da, keyin kechasi tashqariga chiqishga harakat qiladi. Chunki energiya-da u. Qayergadir energiyasini sarflashi kerak. U havoga beradi. Havo tashqariga chiqadi va kun qizigandan keyin yana tashqariga harakat qiladi. Plyonkamiz esa uni tashqariga chiqarmaydi. Demak, ichkarida doim shu 22 darajali fotonlar aylanib yuradi, shuning hisobiga harorat mo‘tadillashadi. Xitoyliklar buni “mo‘jizaviy plyonka” deyishyapti. Ko‘pchilik ishonmaydi. Chunki uning ilmiy asosi juda murakkab. Bu kvant mexanikasi, nochiziqli fizika bilan bog‘liq.

Xo‘p, isitish, sovitish, mayli, o‘z yo‘liga, yana bir muhim jihati, bu tajribada hosildorlik oshishi ham kuzatildi. Hosildorlik o‘z-o‘zidan qanaqa oshishi mumkin? Infraqizil nurlar bargga yetib borganda, fotosintez jarayoni boshlanadi. Fotosintez qancha ko‘p va tez bo‘ladigan bo‘lsa, o‘simlik shuncha tez rivojlanadi. Xo‘p, endi rivojlandi, o‘sdi, gulladi. Endi meva tugishi uchun nima qilish kerak? Changlatish kerak. Hozirgi kunda issiqxonalarda sun’iy changlatishdan foydalaniladi. Odatda, dehqonlarimiz har bir tup gulning ustida ishlaydi. Chunki changlatish o‘ta mashaqqatli mehnat.

Tajribada bizning issiqxonalarimizda kapalak, ari, shunga o‘xshagan hasharotlar uchib yurganini ko‘rdik. Oddiy plyonka ichida uchmaydi ular. Chunki issiqxonaning ichi doim 60-70 foiz darajada nam bo‘ladi. “Mo‘jizaviy plyonka”da esa bunaqa namlik darajasi past. Suv bug‘lanishga yetib bormaydi. Hasharotlar uchadi. Bular uchgandan keyin, albatta, tabiiy changlanish yuzaga keladi. Shuning hisobiga hosildorlik ortadi.

Yana bir narsani kuzatdik. Oddiy plyonka va tajribadagi plyonka ostiga ekilgan o‘simliklarga suv berdik-da, keyin yoz kunida bir hafta suv bermadik. Hafta ichida oddiy plyonkaning tagidagi o‘simliklar qovjirashni boshladi, bizning plyonkamiz ostida esa bu holat ko‘rinmadi. Demak, bu tajriba orqali sug‘orishda suv sarfini 30 foizgacha kamaytirish mumkin.

– Mana shu plyonka, xalq tilida aytganda suvqog‘ozni ishlab chiqarish va o‘sha qulayliklarning hammasini dehqonlarga taqdim etish uchun imkoniyatimiz yetarlimi yoki uning materialini boshqa davlatlardan olib kelishimiz kerakmi?

– Ko‘pchilik bu xabarni eshitgandan keyin bizga murojaat qilyapti. Bu plyonkani qayerdan olsak bo‘ladi, kim sotadi, deb so‘rayapti. Biz ishlab chiqaruvchi emasmiz, biz texnologiya yaratamiz. Olimlar nanokukunlarni topishi mumkin. Lekin nanokukunning o‘zi xalqqa kerak emas. Uni plyonkaga qo‘shish kerak, ishlab chiqaruvchilar bo‘lishi kerak buning uchun. Hozir tadbirkorlarimiz biroz ishonqiramay turibdi, lekin Xitoy tadbirkorlari ancha chaqqon chiqib qoldi. Chunki ular amalda sinab ko‘rishgan. Bu texnologiyamizni germaniyalik hamkorlarimiz bilan ham muhokama qilganmiz.

Hozir jiddiy harakat qilyapmiz, kelgusi yildan shu nanokukunlarni biz ishlab chiqarishni boshlasak, hozircha yiliga 10 tonna ishlab chiqarishimiz mumkin. 1 kilo kukun 1 tonna plyonkaga yetadi. Demak, miqdori juda past. Tannarxi ham deyarli o‘zgarmaydi. Biroz qimmatroq bo‘ladi, xolos.

O‘tgan yili Parkent hududida qor ko‘p yog‘ganida, oddiy plyonka qor og‘irligini ko‘tara olmasdan yirtilib ketdi, bizning plyonka osilib qoldi. Xodimlarimiz plyonkamiz yorilib ketmasligi uchun qorni tushirib yubormoqchi bo‘ldi, men tegmaylik, dedim. Chunki plyonkaning qancha og‘irlikkacha chidashini ham ko‘rishimiz kerak edi. Oradan uch-to‘rt kun o‘tdi, havo ilidi, plyonkamiz esa yana o‘z holiga qaytib qoldi. Demak, bu yerda polimerizatsiya degan jarayon sodir bo‘lgan, molekulalar cho‘ziladi-cho‘ziladi, lekin elastikligi yuqori bo‘lgani uchun uzilmaydi. Endi uning yana asl holiga kelishi, bu umuman boshqa narsa. O‘ylaymanki, 2026-yil davomida aholimizga, dehqon-fermerlarimizga shu plyonkalarni yetkazib berishni boshlaymiz.

– Demak, bugun yurtimiz ilm-faniga jahon ilmiy doiralari orasida qiziqish ortib bormoqda, endi o‘zbekistonliklar xorijga emas, xorijliklar bizga kelib malaka oshiryapti deyish mumkinmi?

– Yetti-sakkiz yil oldin ham o‘zbek olimining orzusi xorijga chiqib, ilmiy tadqiqotini qilib, dissertatsiyasini yozib kelish sanalardi. Chunki chet elda imkoniyat katta edi. Bugungi kunda xorijdan bizga keladiganlar ko‘payib boryapti. Institutimizga Fransiya, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy, Janubiy Koreyadan kelishyapti. Bu, bir tomondan yurtimizda sharoit va imkoniyatlar yaratilgani, boshqa tomondan tadqiqotlarimiz saviyasining ortib borayotgani bilan ham bog‘liq. Endi ilm-fanga yoshlar kirib kelishni boshladi. Demak, yangi yo‘nalishlar, yangi natijalar paydo bo‘ladi.

Yaqinda yuqori entropiyali materiallar degan yo‘nalish paydo bo‘ldi. Tasavvur qiling: samolyot, unda dvigatel bor, dvigatelning parraklari bor. Aytaylik, 40 tonnalik samolyotni uchirish uchun qanaqa kuch kerak? O‘sha turbinalar shunaqa bosimga, kuchga chidamli bo‘lishi taqozo etiladi. Ba’zan samolyotning dvigateliga qushlar urilib, noxush voqea sodir bo‘libdi, deb eshitib qolamiz. Qushning og‘irligi qancha – bir-ikki kilodir nari borsa. Endi o‘sha kichikkina jussa samolyotning turbinasiga urilib, turbinani parchalab yuboryapti. Xo‘p, u katta bosim ostida ishlayapti, havo kelyapti, bu tushunarli. Lekin o‘sha kichkinagina tashqi ta’sir uni halokatga olib kelyapti. Demak, o‘sha turbinalar materialining mustahkamligini oshirish kerak. Boshqa tomondan, uning og‘irligini pasaytirish, yengilroq konstruksiyalar yaratish talab etiladi.

Yuqori entropiyali qotishma nima? Kamida beshta metall olasiz-da, uni aralashtirasiz, keyin 2000 darajada qaynatasiz, so‘ng -100 darajada keskin sovutasiz. O‘sha yuqori entropiyali material hisoblanadi, xususiyatlari fantastik darajada bo‘ladi. Yengil, mustahkamligi juda yuqori. Bu bizning yangi yo‘nalishlarimizdan biri. Ayni paytda rossiyalik olimlar ham bizga hamkorlik maqsadida murojaat qilyapti. Masalaning eng katta “lekin”i, uni ishlab chiqarish uchun juda katta harorat, katta energiya kerak.

Sarmoyaga kelsak, o‘sha energiya sarfining o‘zi katta sarmoya-da. Demak, shundan kelib chiqqan holda, biz yana quyoshdan foydalanadigan bo‘lsak, tannarx pasayadi. Bizning boshqalardan farqimiz ham aynan shunda. Biz arzon energiyaga egamiz va turli xil materiallarni sintez qilib ishlashimiz mumkin bo‘ladi.

Ko‘pchilik ilm ishi mashaqqat, igna bilan quduq qazish bilan barobar, deydi. To‘g‘ri, lekin uning juda qiziqarli, gashtli tomonlari ham bor. Bir materialni olib, unga bir xususiyat qo‘shsang-da, o‘sha xususiyat natijaga aylana boshlasa, olim uchun bundan katta xursandchilik bormi? Chunki bir yangi mahsulotdan foydalaniladigan bo‘lsa, o‘sha foydalanish tugagunga qadar olimga rahmat keladi.

– Domla, muassasangizdagi xilma-xil tovlanayotgan toshlarni ko‘rib, bu yerda nafaqat gaz va metallar, balki ma’danlar bilan ham ishlanadi, degan tasavvur uyg‘onadi.

– Bu toshlar doktorantlarimiz tomonidan tayyorlangan, qiymati brilliantga yaqin. Xuddi tabiiyga o‘xshaydi, tovlanishi qancha nozik bo‘lsa, mustahkamligi ham shuncha pishiq. Nima uchun bu material ustida ishlayapmiz? Chiroyli toshlarni zargarlik maqsadida ishlab chiqarayotganimiz yo‘q. Ushbu o‘ta mustahkam ashyoni geologiyada qo‘llash mumkin. Burg‘ulash jarayonini bilamiz. Minglab metr chuqurlikka tushish uchun mustahkam material kerak, yo‘qsa, parchalanib, sinib ketadi. Shuning uchun bu jarayonda olmos ishlatiladi. O‘ta qimmat tosh bu. Agarda biz uning o‘rnini bosuvchi sun’iy toshlarga ega bo‘lsak, jarayon osonlashadi, xarajat kamayadi. Natijada, yer ostidan olinayotgan tabiiy boyliklar tannarxi tushadi.

– Domla, gazetxonlarimizga aytadigan yana qanday muhim fikrlaringiz bor?

– Ilmiy faoliyat shunday qiziq va jozibador jarayonki, ba’zan olim hayotdan bir muddat uzilib qolishi, ko‘p narsa yodidan ko‘tarilishi ham mumkin, masalan, rahmat aytish. Avvalambor, matbuot va ommaviy axborot vositalari vakillariga rahmat aytishga burchlimiz. Chunki, ko‘plab tadqiqotlarimiz laboratoriyada bo‘ladi-da, ilmiy hamjamiyatning ichida qolib ketadi. Ming afsus. Ko‘p hollarda ilmiy ishlarga baho berishga ham imkoniyat bo‘lmay qoladi. Jurnalistlar shu jarayonda bizga ko‘makka keladi. Siz shunday institutlarga qancha ko‘p tashrif buyursangiz, ilm-fan haqida qancha ko‘p yozsangiz, shuncha yaxshi. Chunki xalqimiz ham olimlarimiz nima bilan shug‘ullanayotganini bilsin. Materialshunoslik instituti, umuman, Fanlar akademiyasining hamma institutlarining eshiklari buning uchun doim ochiq.

– Vaqtingiz tig‘iz va qimmatli bo‘lishiga qaramasdan bizga vaqt ajratganingiz uchun Sizga ham minnatdorlik bildiramiz! Siz kabi fidoyi olimlarimiz ko‘paysin!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

JAHON AYVONIDA

TIBBIY SUG‘URTA TALABI

2026-yil 1-yanvardan boshlab Gruziyada barcha kiruvchi chet elliklar uchun yangilangan majburiy tibbiy sug‘urta rejimi kuchga kiradi – amaldagi polisning yo‘qligi endi rasmiy qoidabuzarlikka aylanadi.



Bu haqda insure.travel sug‘urta markaziga tayanib, RBK xabar bermoqda. Yangi qoida barcha xorijliklarga, jumladan, O‘zbekiston fuqarolariga ham taalluqli.

Gruziyaning “Turizm to‘g‘risida”gi qonuniga kiritilgan yangilanishlarda “xorijiy fuqarolar mamlakatda bo‘lishning butun davri uchun amal qiladigan tibbiy sug‘urta polisiga ega bo‘lishlari shart” deb ko‘rsatildi. Ushbu qoidani barcha chegara punktlarida tatbiq etish rejalashtirilgan.

REKORDCHI OILA

Amerikalik er-xotin Layl va Eleonor Gittens aql bovar qilmaydigan jahon rekordini o‘rnatdi: ular dunyodagi eng uzoq umr ko‘rgan juftlik deb qayd etildi.



Ginnesning rekordlar kitobi o‘zining ijtimoiy tarmoqlarida amerikalik juftlik ko‘rsatkichini ro‘yxatga olgan. Erkak va ayol rasman hozir yashayotganlar orasida ham, butun kuzatuvlar tarixida ham eng keksa er-xotin deb tan olindi. Rekord o‘rnatilgan vaqtda ularning umumiy yoshi 216 yosh-u 132 kun (Layl 108 yoshda, Eleonor 107 yoshda).

Shuningdek, ular turmush qurish davomiyligi bo‘yicha ham rekord o‘rnatdi – 83 yil. Rekordlar uzoq umr ko‘rishni o‘rganish bo‘yicha xalqaro LongeviQuest tashkiloti tomonidan tasdiqlangan.

VIZASIZ KIRISH SHARTLARI

AQSH prezidenti Donald Tramp ma’muriyati mamlakatga vizasiz kirib keluvchi xorijiy sayyohlardan Qo‘shma Shtatlarga kirishdan oldin so‘nggi besh yillik ijtimoiy tarmoqlar tarixini oshkor qilishni talab qilishni rejalashtirmoqda. Bu haqda Bloomberg xabar berdi.



Federal Registrda e’lon qilingan tashabbus 42 davlat, jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya va Yaponiya kabi davlatlardan keluvchi va AQSHga kirish uchun viza talab etilmaydigan sayyohlarga nisbatan qo‘llaniladi.

KA’BADA SURATGA TUSHISH TAQIQLANMAGAN

Ijtimoiy tarmoqlarda Haj mavsumida Masjidul Haram va Masjidun Nabaviy ichida suratga olish butunlay taqiqlanishi haqida xabarlar tarqaldi. Bu xabarlar mutlaqo asossiz bo‘lib, feyk ma’lumot hisoblanadi. Bu haqda The Islamic Information portali xabar berdi.

Haj va umra vazirligi yoki boshqa biror davlat idorasi bunday taqiq haqida rasman e’lon qilmagan. Tirbandlikni kamaytirish uchun taqiq joriy etilgani haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlar ham ijtimoiy tarmoqlardagi tekshirilmagan akkauntlardan tarqalgan.

DINOZAVR IZLARI TOPILDI

Xitoydagi Sichuan provinsiyasida paleontologlar 200 million yillik dinozavr izlarini topdi. Bu haqda Global Times xabar berdi.



Tadqiqotchilar qoya devorida 20 dan ortiq dinozavr izlarini ko‘rgan, ularning haqiqiyligi Xitoy Geologiya fanlari universiteti dotsenti Sin Lida boshchiligidagi ilmiy guruh tomonidan tasdiqlangan.

Topilmalar orasida turli o‘lchamdagi teropod izlari – yirtqich dinozavrlar qoldirgan izlar hamda inson qo‘liga o‘xshash xiroteriy tipidagi chizgilar bor.

MILLAT FIDOYILARI

ZULFIQORNING ZAHMATLI UMRI

Abdurahmonning bolaligi sovet tuzumining eng og‘ir paytlariga to‘g‘ri keldi. Bir tarafda Birinchi Jahon urushi va uning og‘ir oqibatlari, ocharchilik, qonli qatag‘onlar, so‘ng Ikkinchi Jahon urushi har bir insonning qalbiga qo‘rquv, dahshatli hadik, sarosima solgan kezlar edi. Abdurahmon shunday muhitda maktabga qatnab ilm oldi, o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida otasi usta Rahim Muhammadjonovning sartaroshxonasiga kelib, ishlab pul topishga harakat qildi. Maktabni tugatishi bilan tibbiyot institutiga o‘qishga kirdi. Biroq qiyinchiliklar tufayli shifokor bo‘lish orzusi ushalmay qoldi.



Abdurahmon Rahimov, talabalik davri. 1937-yil.

Ilm olishga ishtiyoqmand qahramonimiz 1940-yildan Toshkent pedagogika institutining kimyo va biologiya fakultetida kechki bo‘limda o‘qiy boshlaydi. Ayni paytda jamoat ishlarida faol ishtirok etadi. Totalitar tuzumga xos qarashlarga ko‘ra, talaba Abdurahmon Rahimovning favqulodda qiziquvchan va izlanuvchanligi siyosiy nozirlarda shubha uyg‘ota boshlaydi. 1944-yili talaba aksilsovet qarashlari tufayli sudga tortiladi. U o‘zining kuchli zakovati tufayli aybsizligini isbotlab, sud zalidan ozod bo‘lishga erishadi, biroq jazo organlari iskanjadan qutulib ketgan bu o‘tkir yigitchani kuzatishda davom etadi.

1945-yil 14-noyabr kuni institutning 5-kurs talabasi, bir paytda Toshkent shahar maishiy xizmat boshqarmasi mudiri bo‘lgan Abdurahmon Rahimov endi aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib, yana qamoqqa olinadi. U O‘zbekistonda mustaqil aksilsovet davlat tuzishga intilgan tashkilotga kirganlikda, do‘stlari Nosir Maxsumov va Teshaboy Odilov bilan tashkilot uchun programma va ustav ishlab chiqqanlikda hamda maxfiy qo‘mitaning raisligiga saylanganlikda ayblanadi. O‘sha yili to‘ldirilgan anketaga ko‘ra, bu paytda uning oila a’zolari – otasi Rahim Muhammadjonov, onasi Shohida Risqiyeva, xotini Matluba Rahimova hamda o‘g‘li Abdukarimdan iborat bo‘lgan.

Abdurahmon Rahimov bilan birga, uning do‘stlari – oliy ma’lumotli temir yo‘l muhandisi Nosir Maxsumov, toshkentlik mashhur taraqqiyparvar tadbirkor Komilbek Norbekovning o‘g‘li, oliy ma’lumotli temir yo‘l muhandisi Muhiddin Komilov, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi iqtisodiyot instituti aspiranti Faxri Shoumarov, oliy ma’lumotli muhandis, Chirchiq elektrokimyo kombinatida bo‘lim boshlig‘i Xalil Latipov, O‘rta Osiyo davlat universiteti aspirantlari Teshaboy Odilov va Muhiddin Nabixonov, O‘rta Osiyo davlat universiteti aspiranti, geologiya yo‘nalishida umidli olim Majid Zokirov, oliy ma’lumotli pedagog, Termiz pedagogika bilim yurtida dars bergan Nig‘mon Safoyev, andijonlik Najmiddin Sirojiddinov hamda talaba Shukur Tojiyev singari 11 nafar navqiron o‘zbek olimlari, yosh muhandislar, iqtidorli talabalarga “xalqlar dohiysi”ni haqorat qilgan, uyida jadidlarning asarlarini, jumladan, “O‘tkan kunlar” kitobini saqlagan, degan ayblar qo‘yiladi.

Sud ishi 1946-yilning yozida maxfiy tarzda ko‘rib chiqiladi. Sudda faqat ayblovchining so‘zlari tinglanadi. Ayblanuvchilarga na so‘z beriladi, na ularning fikrlari inobatga olinadi. Hatto, haqiqatni aytib guvohlik bergan bir inson masxara va dashnomlar bilan sud zalidan chetlatiladi. Qolgan “guvoh”lar esa o‘zlari yaxshi tanimagan-bilmagan bu yoshlarga har qanday tuhmatni chaplashdan qaytmaydi.

Sud hukmiga binoan, faqatgina talaba Shukur Tojiyev 3 yillik qamoq jazosi g‘alaba amnistiyasi qo‘llangan holda o‘zgartirilib, sud zalidan ozod etiladi. Muhiddin Nabixonov 3 yil, Majid Zokirov 5 yil, Najmiddin Sirojiddinov 6 yil, Teshaboy Odilov, Xalil Latipov, Nig‘mon Safoyev 8 yil, Abdurahmon Rahimov, Faxri Shoumarov 10 yildan qamoqqa hukm qilinadi. Eng dahshatlisi, Muhiddin Komilov va Nosir Mahsumovga “otib o‘ldirulsin” deb qaror chiqariladi. 1946-yil 16-sentyabr kuni ko‘rilgan qayta sudda asosiy ayblov va hukmlar o‘z o‘rnida qoldirilgani holda, faqat Muhiddin Komilov va Nosir Mahsumovga nisbatan berilgan o‘lim jazosi 20 yillik qamoq jazosi bilan almashtiriladi.

Stalin vafotidan so‘ng boshlangan “iliqlik davri”ning ilk kunlarida qatag‘on jabrdiydalari shikoyat arizalari bilan chiqadi. Biroq 1955-yil 28-may kuni shikoyatlar muhokama qilinib, eski hukm o‘z kuchida qoldiriladi. Mahkamada asosiy e’tibor sovet tergov tizimidagi adolatsizlikka emas, tintuv vaqtida mahkumlarning uyidan “O‘tkan kunlar” asari chiqqaniga qaratiladi.



Abdurahmon Rahimov talabalarga ma’ruza o‘tmoqda. 1984-yil.

1963-yili bu vaqtda muhandis bo‘lib ishlayotgan Muhiddin Komilov SSSR Oliy sudiga shikoyat arizasi bilan murojaat qiladi. Unda o‘zining tuhmat bilan hibsga olinib, oliy jazoga hukm etilgani, so‘ng sud qayta ko‘rilib, 20 yillik qamoq bilan almashtirilganini yozadi. Sudda ularni aksilinqilobiy tashkilot a’zolari, jinoiy guruh sifatida ko‘rishgani, vaholanki, ko‘pchilik qamoqqa olinguniga qadar bir-birini hatto tanimaganini aytib, aybsiz insonlarni oqlashni so‘raydi. Biroq, bu ariza ham boshqa minglab shunday xatlar kabi e’tiborsiz qolib ketadi.

Yosh o‘zbek olimlaridan iborat mazkur “aksilinqilobiy jinoiy guruh” a’zolari faqat O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘nggina oqlanadi.

Qahramonimizga qaytsak, Abdurahmon Rahimov jazoni bir muddat Buxoro va Qiziltepada, so‘ng qishi qahraton, yozi jazirama Jezqozg‘on lagerida o‘taydi. U ota-onasi, turmush o‘rtog‘i, o‘g‘li va qamoqqa olinganidan so‘ng tug‘ilgan qizi Sanobar uchun ham boshiga ne musibat tushsa chidab, ozodlik orzusida kun sanaydi. Zahmatli mehnatga ham, og‘ir muhitga ham sabot bilan chidaydi. Vaqt bo‘ldi deguncha ustarani qo‘lga olib, ota kasbi – sartaroshlikni davom ettiradi, ko‘pning duosini oladi. 1955-yili turmadan qaytganida esa, bir jomadon kitob bilan kelib, hammani hayratga soladi.


Abdurahmon Rahimov qamoqdan ozod bo‘lgach, qolgan hayotini ilm-fan sohasiga baxshida etishga qaror qildi. Jiddiy tayyorgarlikdan so‘ng Qishloq xo‘jaligi institutining O‘simlik fiziologiyasi kafedrasi aspiranti bo‘ldi. Jiddiy tadqiqotlar ortidan 1965-yilda fan nomzodi darajasiga erishdi. Uzoq yillar Toshkent qishloq xo‘jaligi instituti dotsenti sifatida ishlab, minglab talabalarga dars berdi. Qator ilmiy maqolalar, kitoblar, darslik va risolalar yozdi. Xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etdi. Doktorlik dissertasiyasida o‘simliklarda suv tanqisligi mavzusi ustida ishlab, bir qator qimmatli tajribalar va ixtirolarni amalga oshirdi. Mavzu o‘sha vaqtdayoq suv o‘ta qimmatbaho resurs bo‘lgan mintaqamiz uchun nihoyatda dolzarb edi.

Taniqli olim Abdurahmon Rahimov bir umr adabiyot va san’atga oshno yashadi. Zulfiqor taxallusi bilan asarlar bitdi. U yaqinlari va shogirdlari uchun hamisha samimiy do‘st, farzandlari uchun mehribon qo‘rg‘on edi.

Abdurahmon Rahimovning qizi Sanobar Boboxonova ota kasbini tanlab, 1982-yilda nomzodlik ishini himoya qildi. Sanobar opa Isroil davlatida bo‘lganida, tepaliklarda yaratilgan bog‘-rog‘larni ko‘rib hayratga tushgani, nihoyatda murakkab bu ish aniq ilmiy yondoshuv asosida bo‘lishi mumkinligini o‘ylab, Hayfa shahri universiteti professori Ilya Yakovlevdan bu haqida so‘raganida, u tomchilatib sug‘orish usuli o‘zbek olimi Abdurahmon Rahimov tomonidan o‘ylab topilgani, so‘ng ular buni amaliyotga joriy etgani haqida eshitganida, qanchalar g‘ururga to‘lganini gapirib beradi. Sanobar Boboxonova taqdir taqozosi bilan 1995-yildan buyon Amerikada faoliyatini davom ettirmoqda. U Nyu-Yorkda “O‘zbekiston – Amerika” jamiyatiga asos solgan. Hozirda bu jamiyat “Mahalla” nomi ostida faoliyat yuritib, “sehrli diyor”ga borgan yurtdoshlarimizni birlashtirib, ularga turli masalalarda yordam qo‘lini cho‘zib kelayotgani ibratlidir.

Bahrom IRZAYEV

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Hazratqul Rahmonqulov – 1889-yili Jomboy tumani Jomboy qishlog‘ida tug‘ilgan. Aksilinqilobiy tashkilot “Milliy ittihod”ning Samarqanddagi tashkilotchisi, rahbari O‘rinxo‘jayevning yaqin do‘sti bo‘lgan. Hibsga olingan paytda kolxoz a’zosi edi. Tashkilot topshirig‘iga ko‘ra olti marta jang qilgan va bosmachilar to‘dasi bilan birga qochib ketgan. O‘zSSR IIXK Samarqand sektorining 1417-ishi bo‘yicha ayblangan. Kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy, millatchilik targ‘ibotini olib borgan, milliy adovatni kuchaytirganlikda ayblanib, 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan, muddat 1937-yil 18-avgustdan hisoblangan.

Zafar G‘ulom Muzaffarovich – 1869-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, 1933-yili aksilinqilobiy, millatchilik faoliyati uchun 3 yil qamoq jazosiga tortilgan. U “Milliy ittihod” tashkiloti faoliyatida faol ishtirok etgani, Ikromovning topshirig‘i bo‘yicha o‘nlab sovetlarga qarshi ashulalar yozgani, O‘rta Osiyodagi dramaturglar komiteti ishida faol qatnashganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulk musodara qilingan.

Rahmatulla Muzaffarov – 1898-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotiga a’zo bo‘lib, O‘zbekistonni SSSRdan ajratib olish va burjua davlatini tuzish masalalari muhokama qilingan markaz yig‘inlarida faol qatnashganlikda, fosh etilgan millatchilarga yordam ko‘rsatishni tashkil etishda tashabbuskor bo‘lganlikda ayblangan. Rahmatulla Muzaffarov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 60–67-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha aybdor deb topilib, otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 25-oktyabrda Toshkentda ijro etilgan.

Saidsulton Saidaliyev – 1896-yili Qo‘qonda tug‘ilgan. Avval eski maktabda, keyin rus-tuzem maktabida ta’lim olgan. 1905-yili notarius idorasida mehnat faoliyatini boshlagan. Toshkentdagi taraqqiyparvarlar partiyasining a’zolaridan biri sifatida Ukrainaning Xarkov, Poltava, Kiyev shaharlarida bo‘lib, bu shaharlarga badarg‘a etilgan turkistonlik mardikorlar hayoti bilan qiziqqan. Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati tugatilgach, Qo‘qon shahri va uyezdining musulmon mehnatkashlari Soveti rais o‘rinbosari sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1918-yil aprelida kompartiyaga qabul qilingan. 1919-1920-yillarda Toshkentdagi partiya maktabida o‘qituvchi va tarjimon bo‘lib ishlagan. Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissari Akbar Islomov bilan birga sovetlarga qarshi kurash olib borganlikda ayblanib, 1933-yili NKVD “uchligi” tomonidan 5 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Xomid Rasul Qoriyev – 1902-yili Qozog‘iston SSR Mirzoyan shahrida tug‘ilgan. O‘zbek millatiga mansub. Partiya a’zosi bo‘lgan, paxta ishlarida zararkunandachilik qilgani uchun partiyadan o‘chirilgan. Lavozim bo‘yicha jinoyat qilganligi uchun 1935-yil 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Keyin 1 yil shartli qamoq bilan almashtirilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 10-avgustdan hisoblangan.

A’zamjon Ahmadjonov – 1886-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” millatchi tashkilot ishtirokchisi bo‘lgan, quloqqa tortilgan. Qamoqqa olingan vaqtda O‘zbekiston meva-sabzavot magazini mudiri edi. Germaniya “Yurgen” firmasi a’zolari bilan yaqindan aloqada bo‘lganlikda, hokimiyat va partiyaga qarshi o‘z atrofidagilarga doimiy ravishda norozilik tarqatganlikda ayblanib, mol-mulki musodara etilib, o‘zi otuvga hukm etilgan.


Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

HURRIYAT

ILM OLISH JINOYATMIDI?

Siyosiy va iqtisodiy qaramlik botqog‘iga botgan qadim Turkiston xalqini uyg‘otish va yurt ozodligiga erishishni eng oliy maqsad deb bilgan jadid bobolarimiz o‘z faoliyatlarini maktablar ochishdan, vaqtli nashrlar orqali ma’rifat tarqatishdan boshlaganlari bejiz emas. Bu ishlar jadid harakatida birlamchi bosqich bo‘lsa, ikkinchi bosqich yangi maktablarda o‘qigan, ilmga tashna yoshlarni xorijga o‘qishga yuborish, ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash edi.



Afsuski, jadidlar sa’y-harakati bilan chet ellarda tahsil olgan insonlar boshiga keyinchalik qora kunlar tushdi. Boshqa davlatda tahsil olgani uchungina “xalq dushmani”ga chiqarish, ilm olgani uchungina qamoqqa tashlashdek manfur siyosat xalqimiz boshiga qanday og‘ir kunlar solgani bugun barchamizga ayon.

...1891-yilda Fransiyaning Tuluza shahridagi suv kollejiga o‘qishga yuborilgan bir guruh yoshlar orasida to‘rtko‘llik Muhammad hoji Aminaddin o‘g‘li ham bor edi. U mazkur dargohda to‘rt yil tahsil oladi, dunyo ko‘radi va keyinchalik Xonqa bekligida 18 yil hokim, xonlikning bosh mirobi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ziroat (qishloq xo‘jaligi) vaziri bo‘lib ishlaydi. Xorazmlik jadidlarning taniqli vakili bo‘lgan bu inson 1937-yilda qatag‘onga uchrab, Zangiota hibsxonasida vafot etadi.

Yevropaning rivojlangan davlatlarida o‘qigan yoshlar o‘z davriga xos zamonaviy texnologiya va yangiliklarni o‘zlashtirishi va yurtga qaytgach, ularni amaliyotga tatbiq qilishi shubhasiz edi, albatta. Ko‘plab yoshlarni Germaniyaga o‘qishga yuborish g‘oyasi zaminida shu ezgu maqsad yotardi.

O‘tgan asr boshlarida Germaniya oliy ta’lim sohasida dunyodagi yetakchi davlatlardan biri sanalardi. Shu sababli, jadidlar ko‘plab yoshlarni aynan Germaniyadagi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborgan. Ushbu ta’lim muassasalarida saboq berayotgan olimlar orasida turkiyaliklar ko‘pchilik bo‘lib, bu esa turkistonlik talabalar uchun tez fursatda til o‘rganish va saboqlarni o‘zlashtirishga yordam berardi. O‘sha davrda ilm olish uchun yuborilgan yoshlarning bir guruhi Turkiyada o‘qigani ortida ham til va din birligi yotardi.

Bekchon Rahmonov ham Turkiyada tahsil olgan yoshlardan biri edi. U keyinchalik jadidlar ta’sirida yuzaga kelgan “Yosh xivaliklar” harakatining yetakchilaridan biriga aylanadi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar kengashida faoliyat yuritadi, vazir bo‘lib ishlaydi. Ayni shu inson vohada ilk gazeta tashkil etib, unga bosh muharrirlik qiladi.

Jadidlarning ilmga chanqoq xotin-qizlarni xorijga o‘qishga yuborish amaliyotini boshlab berganini o‘z davri uchun inqilobiy harakat deb baholash mumkin. Xiva xonligining nisbatan chekka qishlog‘ida dunyoga kelgan Maryam Sultonmurodovaga Yevropada tahsil olgan o‘zbek qizlaridan birinchisi bo‘lish nasib etdi. U Germaniyada to‘rt yil tahsil olib qaytgach, yangi tuzilgan respublika boshqaruv tizimida xotin-qizlar sho‘basini shakllantirishga munosib hissa qo‘shdi. “Saodat” jurnalida ishlagan davrida ma’naviy-ma’rifiy mavzularda maqolalar yozib, xotin-qizlar muammolarini dadil ko‘tarib chiqdi. Ammo, u ham qatag‘onga uchradi. Uning bor-yo‘q “ayb”i chet elda tahsil olgani edi. Adolatsiz jazo muddatini o‘tab qaytgach, u o‘zi tug‘ilgan qishloqda oddiy tibbiyot hamshirasi bo‘lib ishladi...

Jadid harakati keng quloch yoya boshlagan davr – o‘tgan asrning birinchi va ikkinchi o‘n yilliklari orasida yuzlab yoshlar xorijdagi oliygohlarda ta’lim olib ulgurdi. Yoshlarni chet elga ta’lim olishga yuborish yildan yilga oshib, ayrim yillari 20-25 nafarga yetdi. Xorijda tahsil olib qaytgan yoshlarga havas qiluvchilar, ergashuvchilar ham, ularni “ma’rifat qaldirg‘ochlari” deb ulug‘lab, moddiy va ma’naviy qo‘llovchilar ham osha bordi. Ammo... Ilm olish – “g‘oyaviy buzg‘unchilik”, muhim tarmoqlar bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lib yetishish – “sovet mafkurasiga zid” deb topildi. Turkiyada tahsil olgan talabalarga yoppasiga “panturkist” degan yorliqlar yopishtirildi, barchasi “xalq dushmani”ga aylantirildi...

Chorak asr avval bir do‘stimning farzandi Angliyadagi universitetga o‘qishga kirgani tumanimizda rosa shov-shuv bo‘lgandi. O‘shanda do‘stim: “O‘g‘lim aytganimni qilmadi, shu o‘qishga ketadigan bo‘ldi. Ishqilib, oxiri baxayr bo‘lsin”, deya hadiksiragani esimda. Men ham o‘shanda tarixdan yaxshi xabardor do‘stimning bezovtaligini to‘g‘ri tushundim, lekin endi zamon va siyosat o‘zgargani, u qora kunlar qaytib kelmasligini aytib, uni xotirjam qilishga urindim. Qarang, do‘stimning shu o‘g‘li hozir katta tadbirkor – poytaxtda kichik zavodi, qishloqda bir qancha xizmat ko‘rsatish shoxobchalari bor. Jiyanimning o‘g‘li o‘tgan yili Kembrij universiteti talabasi bo‘lganidan yarim yil o‘tgach xabar topdim...

Zamonaning, siyosatning qanchalik o‘zgarganiga qarang! Bugun ilmga havasmand yoshlarimiz dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olyapti, ilmiy ishlar yoqlayapti. Jadid bobolarimiz orzu qilgan, boshlab bergan ezgu ishlar endilikda odatiy holga aylanib ulgurdi. Ming shukur!

Ro‘zimboy HASAN

BIR SAVOLGA BIR JAVOB

QALOVINI TOPIB...

Qish kelib, havo haroratining keskin pasayishi dehqonlarning asosiy o‘yloviga aylanadi. Ayniqsa, keyingi yillarda iqlim o‘zgarishi sababli anomal sovuqlar qish oylaridan tashqari, bahorning ilk kunlarida ham kuzatilayotgani issiqsevar sabzavotlar, ko‘chat-u daraxtlar uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shunday sharoitda el qatori bizni ham bir savol qiziqtiradi: ekinlarni sovuqdan qanday asrash mumkin?

Bahodir IBROHIMOV,
Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori:

– Sovuqning ekinlarga ta’siri asosan tuproqdagi namlik miqdori va shamol kuchi bilan bog‘liq. Quruq tuproq sovuqni tez qabul qiladi, oqibatda ildiz muzlab shikastlanadi. Shuning uchun dekabr oyi boshida ekinzorlarni mo‘tadil sug‘orish tavsiya etiladi. Bu tuproqdagi issiqlikni uzoqroq saqlab turadi. Shu bilan birga, sug‘orishdan so‘ng tuproqqa ozuqa moddalar berish foydali. Ular ildizni mustahkamlab, ekinning sovuqqa chidamliligini oshiradi. Yetilgan ildiz va ozuqa bilan to‘yingan o‘simlik haroratning 4–6 darajaga pasayishini ham yengil ko‘taradi.

Ildiz atrofida issiqlikni saqlab turish ekinning tirik qolishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, mulchalash usuli juda samarali. Ya’ni ildiz ustini somon, barg, torf yoki maydalangan o‘simlik qoldiqlari bilan yopish orqali tabiiy himoya qatlami hosil qilinadi. U tuproqdagi namlikni saqlab, haroratning keskin o‘zgarishlarini yumshatadi, shamol yoki yomg‘ir ta’siridan yerni muhofaza qiladi. Shu bilan birga, mulcha tuproq tarkibini yaxshilab, undagi biokimyoviy jarayonlarni faollashtiradi, ildizning nafas olishini yengillashtirib, ekinning ozuqa moddalarini o‘zlashtirishini kuchaytiradi. Natijada ildiz sog‘lom rivojlanadi, ekinning sovuqqa chidami ortib, qishdan hayiqmaydi. Gullayotgan novdalarni esa yengil mato, kraft qog‘oz yoki plyonka bilan yopib qo‘yish qisqa muddatli ayozda koni foyda.

Sovuqning ikkinchi xavfli omili – shamol. U havodagi issiq qatlamni tarqatib yuborib, o‘simliklarning tez sovuq olishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun daraxtlar atrofiga vaqtinchalik to‘siqlar qo‘yish tavsiya etiladi. Bu nafaqat shamol ta’sirini qiyadi, tuproq namligini ham saqlab qoladi.



To‘g‘ri, tabiatda sovuqqa tabiiy chidamli o‘simliklar ham bor. Masalan, piyoz, sarimsoq, shovul, rovoch, yerqalampir (xren) kabi. Ular qishda -10–15 darajagacha, agar qor ostida qolsa, -20–25 darajagacha sovuqqa bardosh bera oladi. Shu sabab yaxshi qishlaydi, ildizi sog‘lom qoladi.

Biroq pomidor, qalampir, baqlajon kabi sabzavotlar sovuqni sezuvchan bo‘ladi. Ular uchun maxsus himoya zarur. Shu bois ularni issiqxonada parvarishlash yoki kechasi suvqog‘oz bilan yopib qo‘yish kerak.

Qish faslida eng past harorat, odatda, tonggi soat 3 dan 5 gacha oraliqda kuzatiladi. Shu vaqtda dehqonlar dalaning ayrim nuqtalarida xashak yoki go‘ng aralashmasini shamol yo‘nalishiga qaratib tutatib qo‘yishlari mumkin. Bu sinashta usul havo haroratini 2–3 darajaga ko‘taradi, ko‘chatlarni muzlab qolishdan asraydi. Agar ushbu choralar o‘z vaqtida ko‘rilsa, ko‘pchilik holatlarda, hatto anomal sovuqda ham hosilga jiddiy zarar yetmaydi.

Sovuq o‘tgandan keyingi parvarish ham muhim bosqich. Chunki ekinlar “stress” holatidan chiqib olishi, buning uchun ularga qo‘shimcha ozuqa berish va tuproq holatini o‘nglash lozim. Bu ildiz faolligini qayta jonlantirib, o‘sish jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi. Ana shunda ekinlar ayozdan omon chiqib, barg yozadi, barq urib gullaydi, palak yoyaveradi.

Otabek QUTLIBOYEV
yozib oldi.

ADABIY DO‘STLIK



ASRLAR TANLAGAN ASAR

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida jahon turkiy adabiyotining benazir siymolaridan biri, buyuk ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy “Tanlangan asarlar” kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda taniqli davlat va jamoat arboblari, adabiyotshunos-olimlar, shoirlar, yozuvchilar, yosh ijodkor va talabalar ishtirok etdi.

Anjumanni Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri, senator Sirojiddin Sayyid ochib berar ekan, Ozarbayjon va o‘zbek adabiyoti bir-biriga yaqinligini, xususan, bu xalqlar adabiyot bir-biridan ruh olib turishini alohida ta’kidlab, Muhammad Fuzuliy ijodidan g‘azal o‘qib berdi.

Buyuk shoirning “Tanlangan asarlar” kitobi dunyo yuzini ko‘rishida taniqli shoir va tarjimon Mirzo Kenjabekning hissasi alohida ta’kidlandi.

– Muhammad Fuzuliy mumtoz adabiyot namoyandalarining yirik vakillaridan biri, – dedi Mirzo Kenjabek. – Devon XI asrdan boshlangan ma’rifiy nazmiy kulliyot bo‘lib, Qur’onga, hadisga asoslangan. Devon adabiyoti shoirlari ikki yo‘nalishda ijod qiladi: “ma’joz tariqi” va “haqiqat tariqi”. Hazrati Fuzuliy har ikki yo‘nalishda qalam tebratgan benazir shoirdir.

– Ozarbayjonning nufuzli “555” gazetasiga ushbu kitob va tarjimasi haqida katta bir maqola berdik, – dedi Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi adabiyot universiteti bo‘lim boshlig‘i, professor Almaz Ulvi. – Katta tarjimon Mirzo Kenjabekning tarjimasida Fuzuliy bobomizning ochilmagan qirralari ochilib, she’rsevarlar, kitobxonlar uchun kutilgan sovg‘a bo‘ldi. O‘ylaymanki, Mirzo og‘a Fuzuliyning dard-u iztiroblarini qalban his qilib, uning ruhi bilan yashab, asliyat holida o‘zbek kitobxonlariga yetkazib bera oldi. Durdona asar muborak bo‘lsin!

O‘z muxbirimiz.

TILBILIM



DO‘LTA va QARI BO‘RI

Do‘lta so‘zi bolaligimda eshitgan ertak va afsonalar ta’sirida hamon tasavvurimda beo‘xshov, bahaybat, devsifat maxluq suratini namoyon qiladi. Hozir ham tilimizda beo‘xshov, gavdasi xunuk, suyagi qo‘pol, juda semiz odamlarga nisbatan “Do‘ltaday bo‘lmay o‘l” degan ibora qo‘llanib turadi. Bolalikning uzun kechalarida uxlamaydigan biz o‘yinqaroqlarni onalarimiz “Uxlamasanglar, hozir do‘lta kelib senlarni obketib qoladi” deb qo‘rqitganlarida ko‘rpaga burkanib olardik.

Bu so‘z tilimizda ancha o‘rnini yo‘qotib, chekkalab qolgan bo‘lsa-da, ertak va dostonlarimizda tez-tez uchrab turadi. “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari”ning 3-jildida “do‘lta – jussasi yirik, katta yoshli erkak bo‘ri” degan izoh bor. Lekin bizga momolarimiz do‘ltani bo‘ri deb aytishmagan, afsonaviy badbashara maxluq sifatida tanishtirishgan va shunday ko‘rinishda singdirishgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da do‘lta so‘zi yanada boshqacha izohlangan.

Do‘lta: 1) shevada *yumaloqqina, lo‘ppi, do‘mboq.* Mana siz, bo‘yingiz pakanaroq, lekin.. judayam do‘lta yigitsiz. (M.M.Do‘st. “Lolazor” romanidan).

Do‘lta: 2) shevada *qaymoqni qizdirib yog‘ini olgandan keyin qozonda qoladigan jizzasimon yeyishli qismi.*

Nima bo‘lganda ham do‘lta mening tasavvurimda boshqa narsa: *yarim odam, yarim hayvon ko‘rinishidagi bahaybat, xunuk bir maxluq.* Bolaligimda tasavvurimga singdirilgan bu maxluqni do‘ltabo‘ri – qari bo‘ri ongimdan quvib chiqarolmadi.

Eshqobil SHUKUR

HAJV

NAZM TA’RIFINDA

Ayrim qiziqqan va qiziqqon muxlislarim tomonidan beriladurg‘on “nazm siz uchun nedur?” degan saqich savolga juvobim bul turur:

Nazm kimga inja hunar, kimga kasbtur,
Anovinga cho‘zma lag‘mon, bunga hasibtur.

Hayla ko‘rsichqon aftiga shoirlik niqob,
Qalam birla “qitir-qitir” chohlar qazibtur.

Eh, qadimda na pechka bor, na-da to‘pliy pol,
Baytbarakdan ham ko‘ngil, ham kulba isibtur.

Unda ash’or ila erdi rasmiy aloqa,
Norasmiy aloqa payti el doston tuzibtur.

Shoir degan trenddamas, bugun kasodda,
Balandparvoz gapdan mardum jini qo‘zibtur.

G‘am yemagil, ey xirandmand, bo‘g‘ilma chandon,
Guruch qolgay, sholi qipiq zumda to‘zibtur.

Sattor, satring qisqa, umring daroz o‘lg‘usi,
Fahmi kalta banda she’rni atay cho‘zibtur.

She’rboz kosiblarning muhtasham anjumanida tushlik nasiyasidan oshqozon fig‘on aylab, Qo‘yluq qo‘ybozoriga yondosh somsaxonada mazkurni xushnud itmomig‘a yetkurdim. Sanasi faromush.

Sattor SUROB




TARMOQLARDA NIMA GAP?

Qarz berishga shoshilmang!

UZCERT xizmati tomonidan olib borilgan o‘rganishlar natijasida, so‘nggi paytlarda “Telegram” orqali amalga oshirilayotgan firibgarlik holatlari keskin o‘syapti ekan.

Firibgarlar ochiq guruhlarga qo‘shilmasdan turib, undagi a’zolarni kuzatmoqda. Ular guruh a’zolaridan birining profilini to‘liq o‘rganib, ko‘chirib va quyidagi ma’lumotlarni nusxalamoqda: profil rasmi, ism-sharifi, @username, bio va boshqa elementlar.

Keyinchalik firibgarlar ushbu profildan foydalanib, guruhdagi boshqa ishtirokchilarga shaxsiy xabar yo‘llab, shoshilinch ravishda pul kerakligi haqida yolg‘on ma’lumot yubormoqda. Ular noma’lum shaxsga tegishli bank karta raqamini berib, zudlik bilan mablag‘ o‘tkazishni so‘ramoqda.



Natijada, tanishining profilidan kelgan xabarni tekshirmasdan pul o‘tkazib berish holatlari ko‘paymoqda va fuqarolarning moddiy-ma’naviy zarar ko‘rayotgani qayd etilmoqda.

Do‘stlar, shubhali akkauntlar orqali kelgan murojaatlarga ishonmang! Agar yaqinlaringiz nomidan xabar kelgan bo‘lsa, avvalo, ularning o‘ziga telefon orqali bog‘lanib tekshirishingiz maqsadga muvofiq.

Kuni kecha menga ham obro‘li tanishim telegramdan xabar yozibdi: “Shoshilinch pul o‘tkazib yuboring, qo‘ng‘iroq qilolmayman”. Darrov telefon qildim tinchlikmi deb. Qarasam hamma yoq tinch. Keyin boyagi akkauntga kirib yaxshilab qarasam, chat fonida “Rasmiy hisob emas” degan yozuv turibdi. Darhol bloklab qo‘ydim. O‘zi “To‘ydagi video”, “Yutuqli sovrin”, “Bepul premium” degan e’lonlarni ham ochmay o‘chirib tashlayman.

Bugun telefonni tushunmayman degan bahona o‘tmaydi. Bo‘lmasa, beli og‘rimay pul topadigan shovvozlar topganingizni supurib ketadi. Qarindosh va do‘stlarga telegram orqali qarz bermang! Xafa bo‘lsa o‘ziga. Kerak bo‘lsa, o‘zi kelsin...

Zikrilla MUHAMMAD
Facebook

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 731
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 101
Lotin yozuvida – 11 630
Media kuzatuvchilar – 74 732
Buyurtma: G – 1240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00
Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz